

Sizni sog'inamiz, sirdaryoliklar!

Bahorda ro'y bergan Sardoba toshqinida Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida 14 ta umumta'lim maktabi vayrona holga kelgan edi. Ayni vaqtda bu maktablarni ta'mirlash va tiklash ishlari nihoyasiga yetmoqda.

5-bet

Aytilmay qolgan rahmatlar, so'ralmagan uzrlar...

Odam bolasi doimo yaxshi gapga ehtiyoj sezadi. Balki bu gaplarga ustozlarim mush-toq bo'lmagandir, kutmagandir ham, ammo zimmamdagi mas'uliyatni ado etishim men-ga shart, burch.

7-bet

Bo'lakcha inson edi...



Bo'y-basti o'ziga yarashgan Omonilla Madayev doim orasta kiyinib, soqolini qir-tishlab, sochini kuzab, shaxdam qadam tash-lab yurardi.

8-9-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 7-oktabr, chorshanba № 38 (9311)

Xalq ziyolilari gazetasi

Manzil — aniq, maqsad — qat'iy



2-bet

Tayanch nuqta



Dunyoda jamiki narsa-hodisalarning o'z tayanch nuqtasi bor. Bu faqat kurrayi zaminimizdagi voqe-likka tegishli bo'lib qolmasdan, galaktikadagi barcha sayyora, yulduz, samoviy jismlarga ham taal-qluq. Tayanch nuqtasi bor bo'lmagan narsaning o'zi yo'q. Bo'lgan taqdirda ham, u omonat.

E'tibor bering, hashamatli, naqshinkor, baland imorat oldida turibsiz. Qanchalik ko'kka bo'y cho'zmasin yoki qanchalik "viqorli" bo'lmasin, uning tayanch nuqtasi — poydevori mustahkam bo'lmasa, u hech nimadir. Bir yer silkinishi bilan qulab ketishi tayin. Yoxud daraxtni tasavvur qiling. U gurkirab o'smagan, soya ham, meva ham bermagan bo'lardi uning teran tomiri — tayanch nuqtasi, ildizi bo'lmaganda. Hatto yerning ham tayanch nuqtasi bor. Beruniy, Arximedlar bu haqda qanchalik o'y surib, umrini band etgan bo'lmasin, tayanch nuqta mutlaq haqiqat ekanini anglab yetishgan. Yerning tayanch nuqta-

si bo'lmaganda edi, u allaqachon o'z orbitasidan chiqib ketgan bo'lardi. Shunday ekan, davlatlarning, xalqlar-ni, insoniyatning ham o'z tayanchi, suyanchi bor. Tinchlik mamlakatlarning, totuvlik, o'zaro hamjihatlik xalqlarning osoyishtaligi va farovonligiga tayanch. Shoir bejiz yozmagan:

*Yer tayanch nuqtasin Arximed izlab
Ketdi-ku, topolmay armon yetaklab,
Ona alla aytib umumbasharga
"Bu nuqta — tinchlik!" — deb*

berdi yo'rgaklab.

3-bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Bir tadbirda qatnashdim. Bir yaqini-miz farzandning oliy ta'lim muassa-sasiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilangani sabab katta mehmon-dorchilik uyushtiribdi. To'ra 4 nafar repetitor gerdayib o'tiribdi. Hamma olqish-u alqovlar ularga bo'ldi. Hatto to'n kiygizib, sarpolar bilan siylashdi. Ammo bolaga 1-sinf-da ruchka tutishni o'rgatgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi-yu, 11 yil ta'lim bergan o'qitu-vchilarni biror kishi eslamadi...

UMID

Hamma joyda test. Attestatsiyada ham, kirish imtihonlari-yu boshqalar-da ham. Oqibatda nima bo'ldi, qalb yo'qoldi. O'qituvchilar ham, yuqori sinf o'quvchilari ham she'r yodlamay qo'ydi. Insho, bayon, diktantlarga past nazar bilan qarash boshlandi. Jismoniy tarbiya, musiqa, rasm, mehnat, harbiy ta'lim o'qituvchisi o'z salohiyatini test orqali qoyillatib ko'rsatmoq-da. Aslida attestatsiya testlariga 20 foiz ball berilishi kerak. Qolgani og'zaki, yozma nutq, kasbiy-ijodiy qobiliyat, ish staji, unvon, mu-kofotlar inobatga olinib shu asosida baholan-sin. Test milliy an'analarimiga zarar yetkaz-masligi lozim.

Muzaffar ISMOILOV

O'tgan yili Sirdaryoda ko'z ko'rib qu-loq eshitmagan unvon topshirish maro-simi bo'ldi. Ikki bahoga insho yozgan, o'qituvchilarining barchasi vazirlik olgan testdan qoniqarsiz baholangan maktab direktorining ko'ksiga go'yo "Opa, shunday ishlang. Bizga savodxonlik emas, pulingiz va izzatingiz kerak. O'quvchilaringiz xato qil-sa, ayb sizda emas", deganday "Xalq ta'limi a'lochisi" nishonini taqishdi. O'quvchilik va-qtimizda "ikki" baho olganlar a'lochilar safiga kirmasdi. Yo zamon o'zgardi, yo so'z...

Dilfuza G'AZNAYEVA

Manzil — aniq, maqsad — qat'iy

O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda Prezidentimiz ilgari surgan fikr-mulohazalar, yangicha qarash va g'oyalar ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lami islohot va o'zgarishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Xususan, davlatimiz rahbarining jamiyatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish, rahbar xodimlar va o'qituvchilarning asosiy vazifasi hamda faoliyat yo'nalishtirishini aniq belgilab beruvchi qonun hujjatini qabul qilish, o'quv-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, o'qituvchilarning ijtimoiy mavqeyini yanada yuksaltirish, ijtimoiy, huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yuzasidan bildirgan fikrlari diqqatga sazovor.

Shuningdek, buyuk ma'rifatparvar bobolarimizning jahon ilm-fani, madaniyati, adabiyoti va san'ati rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlari haqli ravishda iftixor bilan alohida ta'kidlandi. O'tgan asr boshlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini o'zining hayot mazmuniga aylantirgan, bu borada ko'p zahmat va taqiqlarni boshdan kechirgan, o'z jonini xatarga qo'yib bo'lsa ham, xalqni ilm-ma'rifatli qilish yo'lida jasorat ko'rsatgan jaded bobolarimizning qutlug' nomlari ehtirom bilan yodga olingani biz pedagoglarni behad to'liqlantirdi.

Shu o'rinda viloyatimizdagi fidoyi o'qituvchi va murabbiylarning yosh avlodni bilimli va salohiyatli etib ulg'aytirish borasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga qo'shgan hissi va samarali mehnati uchun bir qator soha xodimlari, rahbar va pedagoglar qatorida Prezidentimiz farmoniga binoan

"Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlanganim, shuningdek, yana o'nlab yurtdoshlarimiz ham bunday yuksak e'tirofga sazovor bo'lgani, albatta, bizni yanada g'ayrat va shijoat bilan ishlashga, bor kuch va salohiyatimizni xalqimiz farovonligi, yoshlarning barkamolligi uchun baxshida etishga ruhlantiradi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, o'qituvchilarning nufuzi va mavqeyini oshirish maqsadida ularning maqomini qonun darajasida belgilash taklifini o'rtaga tashladi. Qabul qilinajak yangi qonunda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida o'qituvchilar o'zlarining salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularni ijtimoiy, huquqiy, moddiy qo'llab-quvvatlash choralarini kafolatlanishi, maktab direktori, uning o'rinbosari, sinf rahbari, o'qituvchining maqomi o'z ifodasini topadi.



Murojaatda bugun ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog xodimga uning malakasi, ilmiy salohiyati, kasbiy mahorati bilan bog'liq omillarni rivojlantirish, o'z ustida ishlash, pedagog mehnatiga faqat ta'lim beradigan mutaxassis sifatida emas, balki o'zini shu xalqning bugungi hayoti va ertangi kelajagiga bevosita daxldor shaxs sifatida qarashi zarurligi ta'kidlandi. Chindan ham, o'qituvchi o'z sohasiga oid bilim va yangiliklarni chuqur o'zlashtirgan, ta'limning eng ilg'or tajribalarini dars jarayonlarida faol qo'llaydigan, jamiyatdagi tashabbuskor inson bo'lishi kerak.

Tantanali marosimda yana bir muhim masala — jamiyat ko'zgusi hisoblangan ommaviy axborot vositalariga bog'lan munosabat, xususan, jamiyatda global tarmoq rivojlanishi tufayli go'yo gazeta va jurnallar, ilmiy-metodik yo'nalishdagi nashrlarga ehtiyoj qolmadi, degan noto'g'ri qarash shakllanayotgani bilan bog'liq holatlarga nisbatan ham munosabat bildirildi: "Aytinch-i, o'qituvchi o'z ustida ishlashi, bilim va mahoratini oshirishi uchun qo'shimcha

metodik yordamni qayerdan oladi? Albatta, shu sohaga oid kitob va qo'llanmalardan, maxsus pedagogik nashrlardan oladi.

Afsuski, biz keyingi yillarda "majburiy obuna" bahonasida ixtiyoriy obunani ham yo'q qildik. Buning natijasida maktab va oliygo'hlarning o'qituvchi va domlari o'zlari uchun zarur bo'lgan gazeta va jurnallardan ajralib qoldi. Shunday ayanchli holga keldikki, hatto ayrim rahbarlar gazeta o'qimasligi bilan maqtanadigan bo'ldilar.

O'zingiz bilasiz, dunyoda kompyuter texnologiyalari eng rivojlangan davlatlardan biri — Yaponiyadir. Lekin ushbu mamlakatda kuniga 3-4 million nusxada nashr etiladigan gazetalar borligiga nima deysiz? Aytmoqchimanki, hayotimizda radio-televizioniye, Internet bilan birga bosma nashrlarning ham o'z o'rnini bor".

Davlatimiz rahbari bu borada shakllangan salbiy qarashlar asossiz ekanini ta'kidlab, bosma nashrlarni ta'lim muassasalariga, o'qituvchi-professorlarga yetkazishdagi jiddiy muammolarga ham to'xtaldi hamda bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli tashkilotlarga zarur vazifalar yuklatildi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimizning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimdagi murojaati ta'lim sohasi xodimlari oldiga yangi vazifalarni qo'ydi. Ta'lim va tarbiya bilan bog'liq barcha jarayonlar atroflicha tahlil etilib, tizimning yangi bosqichida amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq vazifalar, maqsadlar belgilab berildi.

Hahabjon RAJAPOV,
Namangan viloyat xalq ta'limi
boshqarmasi boshlig'i,
tarix fanlari nomzodi,
"Sodiq xizmatlari uchun" medali sohibi

Munosabat

O'qituvchisiz taraqqiyotga erishib bo'lmaydi

Har yili 1-oktabrda butun O'zbekiston xalqi O'qituvchi va murabbiylar kunini keng nishonlaydi. Prezidentimiz poytaxtdagi Xalqaro Kongress markazida ushbu sanaga bag'ishlangan tantanali marosimda o'qituvchi va murabbiylarga murojaat yo'lladi. Yurtboshimizning bu yilgi bayram tabrigi yangicha mazmun-mohiyat kasb etdi. Ta'lim sohasi vakili sifatida mazkur nutqni barcha yurtdoshlarimiz qatori e'tibor va hayajon bilan tingladim.

Prezidentimiz ustoz siyomiga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatib, ularni ushbu qutlug' sana bilan tabriklar ekan, hayotda qanday muvaffaqiyat va natijalarga erishgan bo'lsak, bu yutuqlarda o'qituvchi va murabbiylarning beqiyos hissi borligini ta'kidlandi. Shuningdek, islohotlar davrida ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash, o'qituvchi maqomini yanada oshirishga oid ishlarga to'xtalib, bu boradagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Darhaqiqat, ilm-fan va ta'limga qaratilgan ulkan e'tibor bois dunyodagi rivojlangan mamlakatlar yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda. Shu bois keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda.

Bu borada mamlakatimizda o'nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi va ijro-

si ta'minlanmoqda. Yaqinda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi uflarni ochib beradi. Qonunga muvofiq, ta'lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta'lim muassasalariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi. Shuningdek, o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga e'tibor qaratarkan, "Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanchi, ustuni deb hisoblaymiz", deya alohida ta'kidladi. Hurmatli ota-onalarni esa bu tashabbusni, albatta,

qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo'lishini aytib o'tdi.

Prezidentimiz murojaatnomada o'qituvchilarning huquqlari davlat himoyasida bo'lishi, ularning kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashuv, boshqa ishlarga jalb qilish javobgarlikka sabab bo'lishini qat'iy belgilash lozimligi, kelgusi ikki yil davomida maktablarni moddiy-texnik jihatdan ta'minlash xarajatlarini 2 barobar oshirish, ularning zamonaviy jihozlar va ko'rgazma qurollari bilan to'liq ta'minlanishi zarurligini ta'kidladi. O'qituvchilar ishini yengillashtirish va ularning salohiyatidan oqilona foydalanishda kelgusi yilda ta'limni raqamlashtirish ishlarini yakunlab, "Onlayn maktab", "Raqqamli va xavfsiz maktab", "Elektron darslik", "Elektron kundalik" kabi tizimlar joriy etilishi, 2020-yil oxirigacha maktablarni keng

polosali Internet tarmog'iga ulash darajasi 70 foizga yetkazilishi xususida fikr bildirdi.

Shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi xalqaro mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash, professional ta'limning mazmuni va sifatini oshirish dasturini ishlab chiqishi zarurligi aytib o'tildi.

Prezidentimizning soha xodimlariga qaratayotgan e'tibori hamda belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali rahbariyati, professor-o'qituvchilari va xodimlari ham o'z oldilariga tegishli maqsad-vazifalarni belgilab, shu yo'lida ish olib boradilar.

Abduhakim MAMANAZAROV,
Moskva davlat universitetining
Toshkent shahridagi filiali
rahbari o'rinbosari,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Xalq deputatlari Mirobod
tumani kengashi deputati

Oila mustahkamligi omillari

● Oilani mustahkamlash va barqarorligini ta'minlash masalasi dunyo miqyosidagi muammoga aylanib ulgurdi. Chunki oilaning ijtimoiy institut sifatida o'z o'zini va mavqeyini yo'qotib borayotgani to'g'risida falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika kabi fan sohalarining yetuk olimlari tomonidan fikrlar bildirilmoqda.

Oila institutini mustahkamlash uchun aholi, ayniqsa, yoshlar orasida tushuntirish ishlarini olib borish, turli xil oilaviy nizo va muammoli vaziyatlarning oldini olish borasida pedagog va psixolog olimlar, o'qituvchi-murabbiylar o'z o'ldilariga alohida vazifalarni belgilab olish lozim. Chunki oila ma'rifati va madaniyatini shakllantirishda, ayniqsa, ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirishda "oila —> maktab —> pedagogika kolleji —> oliy ta'lim —> mahalla" tizimi ilmiy asosda ish yuritishi talab etiladi. Bu tizimning ishlashi jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda, ayniqsa, qizlar tarbiyasiga e'tibor qaratishda muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz aholisining 30 foizi 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Shuni inobatga olgan holda Prezidentimiz yoshlarning bilim olishlari, kasb-hunar egallashlari, bo'sh vaqtlaridan oqilon va mazmunli foydalanib, turli to'garak ishlarida faol ishtirok etishlariga qaratilgan keng imkoniyatlar eshigini ochish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surdi. Ana shu tashabbuslar mohiyatini biz Guliston davlat universiteti "Pedagogika va

psixologiya" kafedrasining professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda yaqindan o'rganib, tahlil etib, Sirdaryo pedagogika kollejidagi amaliyotiga tatbiq etishga kirishdik.

Kollej faoliyati asosan maktabgacha ta'lim yo'nalishiga qaratilgan bo'sh ko'proq o'quvchi-qizlarni musiqa, rassomlik, tasviriy san'at, adabiyot, sport, kompyuter texnologiyasini o'rganish, "Yosh ijodkorlar" to'garagi orqali iqtidorli kitobxonlarni saralash, qizlar o'rtasida she'riyatga, hikoya, esse va badialar yozishga qobiliyati borlarga yaqindan amaliy yordam ko'rsatish kabi tadbirlarni amalga oshirib kelmoqdamiz.

O'qituvchi-murabbiy yetuk ustoz, o'z sohasining ijodkori, ilmiy va o'quv-metodik jihatdan hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Shunga muvofiq kollejimizning professor-o'qituvchilari oila muammolari, qizlar tarbiyasi va maktabgacha ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga qaratilgan uch yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

"Oila" yo'nalishi bo'yicha yaqinda "Zamonaviy oila modeli" va "Zamonaviy mahalla modeli" loyihalari pedagogika fanlari nomzodi, dotsent H.Abdulkarimov rahbarligida kollej professor-o'qituvchilari

hamda iqtidorli va ijtimoiy faol o'quvchilar ishtirokida muhkoma qilindi.

Qizlarimiz bo'lajak mutaxassis va bo'lajak oila bekasi, ona ekanliklarini nazarda tutgan holda "Alla" ko'rik-tanlovini o'tkazishga kirishganmiz. Uning loyihasi ko'rib chiqilib, tayyorgarlik ishlari ketmoqda.

Uchinchi yo'nalish bo'yicha professor-o'qituvchilarimiz o'zlarining tadqiqot mavzulari doirasida ilmiy maqolalar tayyorlash, uni chop ettirish, kichik eksperimentlar o'tkazib, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishga kirishganlar.

Xalqimizda "Bir bolaga yetti qo'shni ham ota, ham ona", degan naql bor. Shu ma'noda qizlarga yurish-turish, kiyinish, salomlashish odobi qanday bo'lishi, shahar ko'chalari, bozor-o'char va transportda o'zlarini qanday tutishlari haqida shunchaki ta'kidlash, ogoh etish tartibida emas, balki tarbiyaviy soatlarda kekxa onaxonlar, quda-andalik tajribasiga ega bo'lgan, mahallalarda obro'-e'tiborli insonlarni ham taklif etish masalasi har doim nazarda tutilgan.

Xulosa shulki, qiz bolani sog'lom, ma'naviyatli etib tarbiyalashda, ularni kasb-hunar va oilaviy hayotga tayyorlashda o'zaro hamkorlik, hamfikrlilik va ilmiy-ijodiy yondashuvlarga asoslanmog'imiz lozim. Bu davr talabi hisoblanadi.

Rahmatilla SULAYMONOV,
Sirdaryo pedagogika kolleji
direktori

● Tarbiyada tashqaridan bo'ladigan salbiy ta'sir bu eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada erkinlikka yo'l qo'yilmagach, u o'z qiziqishi va rag'batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi.

Bola — loy, ota-ona — kulol

Demak, ota-ona farzandining qiziqishlariga ham e'tibor qaratishi talab etiladi. Ya'ni, farzandi kim bilan qayerga borishi va nima bilan shug'ullanishini nazorat qilishi lozim. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, vatani, ona tiliga, millati, dini va an'analariga sodiq bo'lib kamol topishsin.

Shu o'rinda Xorun ar-Rashid va qassob rivoyatini eslash o'rinli.

Faqirona libosda bozor aylanib yurgan Xorun ar-Rashid bir qassobning qo'y xarid qilishdagi zukkoligi va topqirligiga guvoh bo'libdi. Uni navkarlari orqali chaqirtirib, topqirligini yana sinovdan o'tkazibdi. Qassob uddalabdi. Ammo hukmdorning diniy va dunyoviy ilmlardan bergan savollariga javob topolmagach, ibrat bo'lsin deya u o'limga buyurilibdi.

Hukm ijro etilishi arafasida ikki yigit kelib, o'zlarini o'sha qassobning o'g'li deya tanishtirib, otasi o'tolmagan sinovlardan o'tishga tayyorligini bildirishibdi. Hukmdor bu yigitlarning aql-zakovatiga tasanno aytibdi-yu, ammo hukmni bekor qilmasligini ta'kidlabdi. Shunda haligi yigitlar: "Bola — loy, ota-ona — kulol. Otamizga chiqarilgan hukm aslida u kishining ota-onasiga chiqarilishi kerak edi, chunki u kishilar padarimizni shu tarzda voyaga yetkazishgan", deya turli naql va misollar bilan qassobning beaybligini isbotlashibdi va o'zlarini ilm-zakovatli etib voyaga yetkazgan ham otasi ekanini ta'kidlashibdi. Shu tariqa qassob jazodan omon qolib, o'g'illari hukmdor vaziri darajasiga ko'tarilibdi.

Xulosa shuki, bola tarbiyasiga eng avvalo ota-ona mas'ul. Agar ular bola tarbiyasiga oid burchlarini astoydil bajarsalar, farzandlari el-yurtiga sodiq, asl insonlar bo'lib voyaga yetadi.

Zebo CHORIYEVA,
Hulkar RAJABOVA,
Angor tumanidagi
3-maktab o'qituvchilari

Oila — ta'lim muassasasi — mahalla hamkorligi

● Tarbiya jarayonining xususiyatlaridan kelib chiqib shuni aytishim mumkin, ta'lim va tarbiya oila, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda rivojlanib boradi. Bu jarayonda mas'uliyatni faqat ta'lim muassasasi (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va h.k.) zimmasiga yuklash, afsuski, ko'p kuzatilmoqda.

Beg'am emas, birdam bo'laylik!

O'quv muassasalaridan tashqari muhitning ta'siri, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka berilishi, balog'atga yetmagan tengdoshlarining ta'siri, madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi og'ir yoshlarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

Pedagogik faoliyatni mukammal amalga oshirishga to'stinlik qiluvchi holatlarning ko'pi ota-onalar tomonidan farzandlarining o'qituvchi bilan munosabatlariga asossiz aralashuvi, ustozning farzandiga bergan tanbehlaridan noto'g'ri xulosa chiqarib, ta'lim muassasasiga kelib, ustoz va murabbiylarga nisbatan hurmatsizlik qilish kabildir. Natijada yosh avlod oldida o'qituvchining ijtimoiy mavqeyi tushmoqda.

Ammo o'quvchilar tomonidan biron-bir noxush vaziyat sodir etilsa, birinchi bo'lib ta'lim muassasasi va ustozlar javobgar bo'ladi. Ushbu vaziyatni yaxshilash jarayonida ham ular jonbozlik ko'rsatishadi.

E'tibor beradigan bo'lsak, o'quvchi-yoshlarning bir kunda muayyan vaqtigina ta'lim muassasasida o'tadi. Qolgan payt ular oila va mahalla bag'rida bo'lishadi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida ota-ona, mahalla, huquq-tartibot organlari va boshqa ijtimoiy institutlar ham birdek mas'uldirlar. Shunday ekan, beg'amlikka berilmaylik. Birdam bo'lib, farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasidagi kamchilik va muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etaylik!

Sayyora YO'LDOSHEVA,
Ohangaron shahridagi
3-maktab o'qituvchisi,
magistrant

Samarali hamkorlik zarur

● Ma'lumki, 2019-2020-o'quv yilining 4-choragida darslar pandemiyaga tufayli onlayn tashkil etildi. Rivojlangan davlatlarda masofaviy darslar XX asrning oxiridayoq boshlangani barchamizga ma'lum. Tajribalarga tayangan holda aynan bu ta'limni tashkil etishda o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi hamkorlik yaxshi bo'lsa, o'qituvchi uchun ancha osonroq kechganining guvohi bo'ldik.

2-sinf o'quvchilariga saboq bera-man. Onlayn darslarni tashkil etish davomida ota-onalar bilan samarali hamkorlik qildim. Darslarning natijasini esa Telegramdagi sinfimuz guruhi da ovozi xabar orqali aniqlab bordim. Ammo besh qo'l barobar bo'lmaganidek, darslar o'quvchilar tomonidan to'liq ko'rilmasligi, texnik nosozliklar va ba'zida metodik kamchiliklar ham uchradi. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida yozgi ta'til davomida o'quvchilar, ota-onalar bilan alohida onlayn suhbatlar olib borib, hammamiz har qanday sharoitga tayyor turishimiz lozimligini tushuntirib, ularning fikrini o'rgandim.

O'qituvchi sifatida onlayn darslardan

turli metodik o'yinlarni, mavzuga mos multimedialarni ko'rib, bolajonlarimizning bilim saviyasi oshishini kuzatdim.

Shu ma'noda masofaviy darslarga moslashtirishda hamkorlik an'analariga tayansak, ota-onalar farzandlari uchun bu darslarni birgalikda kuzatib borganlari samarali natija beradi. Biz ustozlar esa har kunlik dars jadvalini ota-onalarga yetkazsak, mavzular, darslik multimedialar tahlili xususida to'xtalsak, o'quvchilar bilan bog'lanib, savollariga javob bersak — shundagina maqsadga erishamiz.

O'yista HAMROYEVA,
Navoiy shahridagi
15-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Ta'lim maskanlarida

Sizni sog'inamiz, sirdaryoliklar!

Sirdaryoliklar jonajon O'zbekistonimiz uchun aziz va qadrl. Buning boisi ularning mehnatkash va yaratuvchanligi-yu bag'rikengligi, hayotga katta muhabbat bilan qarashlari bo'lsa ajab emas. Har safar qo'limga qalam olib sirdaryolik bir zamondosh qiyofasini yaratishga chog'lansam, Prezidentimizning quyidagi so'zlari yodimga tushaveradi: "Sirdaryo deganda, sirdaryolik deganda azim Sayxun daryosi sohillaridagi so'lim bir voqa, qadimiy Mirzacho'l bag'rida bog'u-bo'stonlar, shaharu qishloqlar bunyod etib kelayotgan mard va matonatli insonlar ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi".

Hayot go'zal, ammo sinovli

— Ayni vaqtda viloyatimizda 311 umumta'lim maktabida 160 ming nafar o'quvchi tahsil oladi, — deydi Sirdaryo viloyati XTB umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i Abdumalik Abdurahmonov. — Ayni vaqtda pandemiya talablaridan kelib chiqib, 129 maktabda ta'lim jarayoni olib borilmoqda. Bahorda ro'y bergan Sardoba toshqinida Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida 14 ta umumta'lim maktabi vayrona holga kelgan edi. Ayni vaqtda mavjud maktablarni ta'mirlash va tiklash ishlari nihoyasiga yetmoqda. Ta'mirlangan maktablar oldingisidan sira ham qolishmaydi. Odamzod hayotda har doim kutilmagan voqealarga tayyor turishi kerak ekan. O'qituvchilar ham, o'quvchilar ham maktablarini sog'inigani rost...

— Suv toshqini ro'y berganda ertalab soat oltilar atrofida uy-joyimizni tashlab chiqib ketdik, — deydi o'sha payti Mirzaobod tumanidagi 17-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lgan Kamola Abrorxonova. — Tasavvur qiling, u paytda ko'zingizga hech narsa ko'rinmaydi. Xalqimiz bekorga o't va suv balosidan asrasin, deb aytmagan. Muallim ham ijodkorday odamda, muntazam o'z ustida izlanmasa bo'lmaydi. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy tarbiyalashni takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy ishim bilan bog'liq materiallar suvda oqib ketdi. Sirdaryo viloyati xalqi bilan uchrashuvda Prezidentimiz menga ko'rsatgan ehtiromdan ruhanib ketdim. May oyida professor Barno Sayfuddinova rahbarligidagi ilmiy ishimni muvaffaqiyatli yoqladim. Ayni vaqtda Nizomiy nomidagi TDPU "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrasini mudiriman. Amaldagi "Tarbiya" fanidan elektron resurs yaratish borasida izlanishdaman. Sirdaryoliklar men uchun aziz. Mirzaobodda tug'ilib o'sdim. U yerda ikki yil o'quvchilarga dars berdim. Suv ombori falokat bilan bog'liq xotiralar ham tarixga aylanyapti. Ammo bir-birimizga qiyin kunlarda yelkadosh bo'lish, bir bo'lak nonni bo'lib yeyish, oqibat abadiy qolaveradi. Buni esa sirdaryoliklardan o'rganmoq kerak.

"Bekat"liklar dunyoga mashhur

Boyovut tumanida "Bekat" nomli qishloq bor. Ikkinchi jahon urushidan

keyin temiryo'l bekati atrofiga O'zbekistonimizning turli go'shalaridan odamlar kelib yashab qolishadi va u ramziy tarzda "Bekat" deya atala boshlaydi. Keyingi yillarda bu yerdagi 6-umumta'lim maktabidan yetishib chiqayotgan qator iqtidor sohiblari qishloq dovrug'ini ko'tara boshladi. Sardor Mamatqulov, Viloyat Bozorova, Muxlisa Mirzayeva singari yoshlar nafaqat Sirdaryo viloyati, balki respublika miqyosidagi tasviriy san'at tanlovlarida nufuzli o'rinlarni qo'lga kiritdilar. 6-sinf o'quvchisi Lochinbek Zokirov Yaponiya hukumati tomonidan tashkil etilgan "Ona zamin muhofazasi va tabiat" mavzusidagi tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasida qatnashib, 94 davlatdan 18 ming ishtirokchi ichida 48 nafar g'oliblar qatoridan o'rin oldi.

— Maktabimizda amaliy fanlar metodik birlashmasi tomonidan tasviriy san'at fanining o'qitilishiga katta e'tibor qaratilmoqda, — deydi maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari Karimboy Mirzayev. — Sababi, o'quv dargohida necha o'n yilliklar davomida tasviriy san'at fanini izchil o'qitish samarasi o'laroq, o'quvchilarimiz bir-biriga havas qilib rassomlik iqtidorini namoyon qila oldilar. Bolalar ijodini targ'ib qilish, ularga e'tibor qaratish maqsadida, maktabimizda tasviriy san'at muzeyi tashkil qilganimiz. Hozir Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti talabalar Ziloya Sattorova, Sarvinoz Tosheva, Dildora Pirimqulova, avval rassomlik, keyinchalik kinorejissurada ijod qilayotgan Oybek Qarshiboyev va bir qancha sobiq o'quvchilarimiz asarlari bu yerdan o'rin olgan. 2018-yilda tuman miqyosida o'quvchilarimizning bu fandan o'zlashtirishi yuqori baholandi, "Yilning eng yaxshi tasviriy san'at fani o'qituvchisi" deya e'tirof etildim. Ayni paytda o'quv ishlari bo'yicha mas'ul bo'lsam-da, tasviriy san'at borasidagi tashabbuslarni doimo qo'llab-quvvatlayman.

— Jamoamizda 54 o'qituvchi 562 nafar o'quvchiga dars beradi, — deydi maktab direktori Oloberdi Isomov. — Maktabimiz "Bekat" mahallasidagi asosiy ma'naviyat o'chog'i hamdir. Turli xil ma'naviy tadbirlar ham asosan shu yerda o'tkaziladi. Maktabimiz "Zamonaviy maktab" dasturiga kiritilib, yangi qiyofa kasb etayotganidan behad xursandmiz.

Sen qozoqmi, men qozoq?

Sirdaryo viloyati o'z bag'riga ahil, inoq, mehnatkash turli millat vakillar-



Suratda: Sirdaryo tumanidagi 8-maktab pedagogik jamoasi.

ini jamlaganki, ularni go'yo bir oilaning farzandlariga qiyoslash mumkin. Sirdaryo tumanidagi "Sholikor" mahallasi bundan bir necha yillar avval rostdan ham sifatli sholisi bilan mashhur bo'lgan. Viloyatning eng chekka hududi "Sholikor"ni o'zlashtirish uchun bir vaqtlar 30 dan ortiq millat vakillari bu yerga safarbar qilingan va muqim yashab qolishgan. Sholikorda asosiy ma'naviyat va ta'lim maskani esa 8-umumta'lim maktabida dars o'zbek, qozoq va rus tillarida olib boriladi. Maktab bolalari orasida o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz, koreys, tatar, rus millati farzandlari bor. Ular darslarga birga qatnaydi, bayramlarni birga qarshi oladi, tinch va osuda O'zbekiston bag'rida do'stlik tuyg'usini juda ham qadrlaydi.

— Maktabimiz Sirdaryo viloyatida qozoq tili va adabiyotini o'qitish bo'yicha tayanch o'quv dargohidir, — deydi o'quv maskani direktori Marhabo Yo'ldosheva. — Bir necha yildan buyon qozoq tili va adabiyotini o'qitish masalalariga bag'ishlangan viloyat anjumanlari bizda o'tkazilayapti. Maktab jamoatchiligining viloyat qozoq milliy madaniy markazi faollari bilan aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilgan. O'quvchilarimizning 67 nafari qozoq millatiga mansub. O'qituvchilarimizdan Guljavar Davletova, Bibixol Boyxo'jayeva, Aygerem Halimbetova, Qodirali Kojakov, Dilshoda Miraliyeva, Bo'lsunoy Esirgapova, Jamila Odilova, Salima Sareshova boshlang'ich ta'lim va turli fanlardan qozoq tilida saboq beradi. Bo'lsunoy Esirgapova, Bibixol Boyxo'jayevalarning ish tajribasi viloyat miqyosida ommalashtirilgan.

— O'tgan yil O'zbekistonda "Qozog'iston yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan poytaxtdagi bir qator tadbirlarda ishtirok etib katta taassurot oldik, — deydi maktabning qozoq tili va adabiyoti o'qituvchisi Aygerem Halimbetova. — Ikki xalq orasidagi munosabatlar juda uzoq tarixga ega. Qolaversa, qozoq madaniyat markazi bilan aloqalarni mustahkamlab, yangi rejalariga qo'l urdik. Har yili maktabimizda "Alifbe" bayramida jajji bolakaylar qozoq milliy libosida kirib kelayotganini ko'rganimda, nafaqat hayratlanaman, balki qozoq millati farzandi sifatida g'ururlanaman ham. O'zbekistonimizda turli millat vakillarining tili va udumlari, adabiyoti, san'ati targ'ibotiga alohida e'tibor qaratilayotgani, bir ziyoli muallima sifatida meni quvontiradi.

Vatan — har narsadan ulug'. Uni ildizi va teran tomirlari bir bo'lgan insonlarga qadrlaydi va e'zozlaydi. U kelajakka orzular bilan qadam tashlayotgan yangi avlodning qalbida katta kuch bo'lib ruh berib tursa, naqadar ulug'vor va ajoyib. O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo esa qardoshlik tuyg'ularini yanada jo'shib tarannum etadi:

Voy-bo'y yurtiga qarab boq,
Osmon qadar keng qozoq.
Tilim, dilim, dinim bir,
Sen qozoqmi, men qozoq?
Otam otangga jo'ra,
Abayni mendan so'ra.
Qiyiq ko'zimga qara,
Sen qozoqmi, men qozoq?

To'ra Sulaymonni hayratlantirgan qahramonlar

O'z ovozi va uslubida ijod qilgan, sirdaryoliklar qalbidan munosib o'rin olgan O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon bir umr Sirdaryoda yashab ijod qildi. Ehtimol Sirdaryoning keng dalalari, mehnatkash va tanti odamlari shoirga ilhom bergandir, ehtimol yurt, yaratish ishida yashayotgan qalbi yoniq odamlar orasida yashash zavq bergandir, ehtimol maktab ostonasiga ilk qadam qo'yan bolaga harf tanitayotgan ulug' murabbiy qahramonliklari qo'lga qalam olishga undagandir. Qanday bo'lganda ham ulug' shoir bir umr sirdaryoliklar quvonch va tashvishlari bilan yashadi:

Gar ixtiyor etsangiz
bo'stonga aylangusi
Bu diyorning dasht-dala,
gullari yobonlari.
Sizlar ulus tayanchi,
quvonch, ko'rk, iftixori,
Sarhad qal'alarini
qo'riqlar posbonlari.
Toki sizlar bor ekan,
xatar neligin bilmas
Mustaqil bu o'lkaning
mustahkam qo'rg'onlari.

Kelajakka havas va hayrat bilan intilayotgan sirdaryoliklar esa hali ko'plab shoirilarga ilhom, shavq beraveradi.

O'ljaboy QARSHIBOY

“Hammompish, hammompish, hammanikidan oldin pish”

Shaxs shakllanishi jarayoniga ota-ona, bog'cha tarbiyachisi, boshlang'ich sinf o'qituvchisining daxldorligi katta. Shu bois ular milliy qadriyatlarini yaxshi bilib, tushunib, yosh avlodga yetkaza olishlari lozim.

Ota-bobolaridan qolgan xalq o'yinlarini jazzi bolajonlariga o'rgatib kelayotgan ota-onalar, murabbiylar o'z maqsadlariga albatta erishadi. Chunki umr ko'klamidagi o'yin murg'aklarni ulg'aytiradi, hayotga tayyorlaydi. Bu jarayon ming yillar davomida ruhiyatimizga singib, irsiyatimizga ham o'tgan. Hunar ham suyak suradi, kichkintoy o'zi to'la anglab yetmagan holda ajdodlari shug'ullangan kasb-hunarni egallashga beixtiyor intiladi va murg'ak ongida shakllangan narsalarni yasashga urinadi. Bu sa'y-harakatlar o'yinlar orqali ro'yobga chiqa boradi. Masalan, ot o'yin, do'ppi o'yin, to'ptosh, uyakam, ko'ch-ko'ch o'yini, loyporsildoq, hammompish o'yini va boshqalar. Ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Shu o'rinda ayrimlarining ijro o'rni, maqsad va vazifalarini tahlil qilib ko'raylik.

Dehqon oilasida tug'ilgan bolalar yozning issiq kunlari to'planib, hammompish o'yinini yoqtirib o'nashadi. Bu o'yin o'z nomiga monand uysozlik o'yini bo'lib, kichkintoylar chalaquruq to'plangan qum ustiga ho'l bosib hammonning gumbazi shakliga keltiradilar. Gumbazning ust qismini qotiradilar.

Gumbazning bir chetidan eshik ochib, ichidagi xom qumni chiqarar ekan, gumbazini ohista shapatilab, o'zlarining an'anaviy hammompish qo'shig'ini boshlaydilar:

*Hammompish, hammompish,
Hammanikidan oldin pish.
Hammadan oldin pishmasang
Buzilib ket, o'yilib tush!*

Bunda kimning gumbazi pishshiq shibballangan bo'lsa, buzilmaydi. Gumbazi buzilmay qolgan “usta” ruhlanib, baqirib-chaqirib, oyoq-qo'llarini harakatlantirib, o'ynoqlab qo'shiq boshlaydi:

*Mening buvim: “Suv”, dedi.
“Oyoq-qo'lingni yuv”, dedi.*

Bu o'yin jarayonida norasidaning uysoz-ustachilikka havasi paydo bo'ladi. Shu hunarga mehr qo'yadi, mehnatga layoqati oshadi.

Loyporsildoq o'yini ham juda qiziq. Loydan kosacha yasab, uni to'ntarib turib, silliq yerga urilsa, bu “idish” ichida siqilgan havo porsillab boshmaldodning tirnog'icha joyni o'pirib chiqadi, porsillagan tovush qancha baland chiqsa, bolajonlarning quvnoq shovqini shun-

chalik avjlanadi, turli-tuman uzuq-yuluq qo'shiqlarga ulanadi... Loy yerga urilaverib, rosa pishgach, undan uzun chorqirra g'ishtchalar tayyorlashadi va bir-biriga o'xshamaydigan, har biri o'ziga xos tarix asosida qadimgi paxsadevor imoratlar andozasida uychalar yasaydilar. Bu ham uysoz ustachilik hunariga bolaning qo'lini o'rgatib, ko'zini pishitib boradigan o'yinlardan biridir.

O'yin qaysi shakl, mavzu, yo'nalishga ega bo'lmasin, loy, tuproq, cho'p, ip, arqon kabilar bilan yosh niholni hayotga, turmush ikir-chikirlariga, ro'zg'or ishlarihozirlashda o'ziga xos hunar maktabi vazifasini bajargan.

Bolalar o'yinlarining barchasi ba'zan yuqori pardada, ba'zan xirgoyi holida qo'shiq aytib turib bajarilgan. Shuning uchun bolalar o'yin qo'shiqlariga milliy tarbiyaning o'ziga xos manbaviy, turkum didaktik xarakterdagi, sinkretik asarlar sifatida qaralmog'i lozim.

Kichik yoshdagi bolalar kattalarning yurish-turishi, xatti-harakati, so'zi-yu ishiga taqlid qiladilar. Qo'shiqlar xirgoyi qilish bilan birga, mehnat jarayonida ota-onasi, aka-opasi qatorida turib ishlashni o'rganadilar. O'z qobiliyatiga muvofiq buyurilgan yumushlar bolani ilhomlantiradi. Kattalarga ergashib, jo'xorizorni chumchuqlardan qo'riqlab yurgan bolalar shunday qo'shiq kuylaydilar:

*Uyning kuygur chumchuqlar,
Jo'xorimni yeb ketding.
To'y may yana u suqlar:
“Erta kutgin”, deb ketdi.*

*Ho-huv, gala-gala,
Ho-ho, ho-ho, huvv!*

*Kelmay o'lgur chumchuqlar,
Tol boshida bola ochar.
Bolasidan bermasdan
Ketmontepaga qochar.
Ho-huv, gala-gala,
Ho-ho, ho-ho, huvv!*

Bolalar ayniqsa mehnat qo'shiqlarini bevosita biron-bir ish bilan mashg'ullik jarayonida juda ko'tarinki kayfiyatda ijro qiladilar. Shu paytda o'zlarini kattalardek sezadilar. Qalbilarida ulg'ayish istagi jo'sh uradi, kuylatib yuboradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchining qobiliyati va ijro imkoniyatlariga qarab, yo'l- yo'riqlar berib turmog'i zarur. Ota-ona ham mehnat jarayonida farzandlarini yonlarida olib yursalar, ularga zeriktirib, bezdirib qo'ymaydigan darajada ish buyursalar, birgalashib qo'shiq xirgoyi qilib ishlalsalar, ham aqliy, ham jismoniy tarbiya usulidan birini bajargan bo'lar edilar.

Dilbarxon NAZAROVA,
Dang'ara tumanidagi 23-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Alisher Navoiy butun turkiy xalqlarning mumtoz shoiri va donishmand davlat arbobidir. Uning turkiy dostonlari majmuasi butun dunyoga mashhur va “Xamsa” mazkur janrda yaratilgan turkiy tildagi birinchi asar hisoblanadi. Shu orqali Navoiy chig'atoy tili(eski o'zbek tili)da ham fors-tojik adabiyoti bilan teng darajada turuvchi asar yaratish mumkinligini isbotlagan. Ulug' mutafakkirning bir devonidan tashqari barcha asari turkiy tilda yozilgan.

Alisher Navoiyning otasi G'iyosiddin “Kichkina”mi?

Tarixiy manbalar va tazkiralarda keltirilishicha, shoirning kelib chiqishi baxshilarga borib taqaladi (Bu yerda “baxshi” atamasi qo'shiq kuylovchi, oqin ma'nosida bo'lmay, davlat lavozimlaridan biri nazarda tutilmoqda). Navoiyning otasi va bobokalonlari temuriylar saroyida baxshi, ya'ni ma'muriy binolar qurilishini nazorat qiluvchi hamda muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarni yozib boruvchi solnomachi sifatida nufuzli vazifalarga faoliyat ko'rsatgan. Otasini “Kichkina baxshi”(G'iyosiddin kichkina) deyishgan, u saroyda amaldor bo'lgan. G'iyosiddin Kichkinaning ota-bobolari ham temuriylar saroyida turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan.

Masalan, Navoiyning bobosi Amir Temurning ikkin-

chi o'g'li Umarshayx mirzoning emikdoshi(ko'kaldoshi) bo'lgan va ulg'aygach ham uning doimiy xizmatida bo'lgan. Umarshayx mirzo o'limidan keyin u Temurning kenja o'g'li Shohrux mirzo xizmatiga o'tkazilgan. Uning o'g'li G'iyosiddin bahodir (Navoiyning otasi) esa Shohruxning nabirasi Abulqosim Boburning eng ishonchli beklaridan biri bo'lgan. Jasurligi, mardligi va harbiy soha uddaburoni bo'lganligi uchun G'iyosiddinni “bahodir” deb atashgan. Lekin uning “G'iyosiddin Kichkina” yoki “Kichkina bahodir” nomlari bilan atalganligi eng ko'p tarqalgan ma'lumotdir. Unga berilgan “Kichkina” laqabi jussasiga emas, balki yoshiga nisbat.

G'iyosiddinning “kichkina” ta'ri fi ko'kaldoshi bilan bir xil

nomga ega bo'lganligi tufaylidir. Ya'ni, u Amir Temurning nevarasi G'iyosiddin Mansur(u Umarshayx mirzoning kichik o'g'li edi)ning ko'kaldoshi bo'lgan, shahzoda bilan birga o'sgan, ularni bir-birlaridan farqlash uchun G'iyosiddin Mansur mirzodan yosh jihatdan biroq kichik bo'lganligi uchun G'iyosiddin bahodirni (Navoiyning otasini) “kichkina” deb sifatlaganlar. Davlatshoh Samarqandiyning bergan ma'lumotlari tahlil qilinganda, G'iyosiddin Kichkina savlatli va pahlavon kishi bo'lgan. Uning yengilmas bahodirli-gi va temuriylar saltanati-ning eng sodiq va uzoq yillik amaldorlaridan bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor.

Laylo ZAMONOVA,
Sirg'ali tumanidagi
6-IDUM o'qituvchisi

“Qisqa tanaffus”larda...

O'qituvchi dars jarayonida darsdan tashqari mavzuga oid qiziqarli ma'lumotlar yoki biror mashg'ulotga qisqa vaqt ajratsa, o'quvchi fikrini jamlab oladi va mavzuni yaxshi o'zlashtiradi. Dars jarayonidagi “qisqa tanaffus”larda xalq maqollaridan ham foydalanish mumkin.

Bebaho xazina bo'lmish xalq og'zaki ijodida bir maqolning turli ko'rinishlari ham uchraydi. Ko'pidan kundalik hayotimizda ham foydalanamiz. Masalan:

1. O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'li.
2. Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida ul ton bo'li.
3. Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z elingda cho'pon bo'li.
4. O'zga yurtning qozisi bo'lgandan, o'z elingning tozisi bo'li.
5. O'zga yurtning boshi bo'lguncha, o'z yurtning toshi bo'li.

Bola tarbiyasiga oid quyidagi maqolning ham har xil ko'rinishlari bor:

1. Yaxshi bola yog' keltirar, yomon bola dog' keltirar.
2. Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g'am keltirar.
3. Yaxshi bola — otaga quvvat, yomon bola — uqubat.
4. Yaxshi bola — suyuk, yomon bola — kuyuk.
5. Yaxshi bola to'rga tortar, yomon bola go'rga.
6. Yaxshi bola shon keltirar, yomon bola qon keltirar.
7. Yaxshi boladan rahmat, yomon boladan la'nat.

Shu kabi maqollarni sanasak adog'iga yetib bo'lmaydi. Ular mazmunan o'xshash bo'lsa-da, so'zlarning jilolanishi jihatidan turlichadir. Maqollardan birini tanlab o'quvchilardan shuning ko'rinishlarini sanab berishini so'rasangiz, zukko o'quvchilar hali siz uchratmagan xillarini-da aytib sizni hayron qoldirishi mumkin. Dars jarayonida maqollardan foydalanish o'quvchining so'z boyligini oshiradi va uning tarbiyasida ijobiy o'zgarishlar yasaydi.

Nigora AZIZOVA,
To'raqo'rg'on tumanidagi
29-maktab o'qituvchisi

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 3-varianti

ONA TILI

(5-sinf: 96–119-betlar)

1. *Katta, ushshoq, yalla, chaqqon, tilla, chinni, sil-la, quvvat, qattiq, izzat.*

Ushbu qo'sh undoshli so'zlardan nechtasida qo'sh undoshlardan biri tushirilsa, yangi ma'noli so'z hosil bo'ladi?

- A) ikkitasida B) to'rttasida
C) oltitasida D) sakkiztasida

2. Qaysi javobdagi qator undoshlar “jarangli + jarangsiz” ketma-ketligida kelgan?

- A) o'rtoq B) to'rt C) gulchi D) baxt

3. “A” unlisi bilan tugagan fe'llarga qaysi qo'shimchalar qo'shilsa, “A” unlisi “O” tarzida aytiladi va shunday yoziladi?

- 1) -v; 2) -aki; 3) -qi; 4) -qi; 5) -chi; 6) -vchi
A) 1, 2, 3, 4, 6 B) 1, 3, 4, 6
C) 2, 3, 4, 5, 6 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

4. Qaysi qatordagi tovush almashishi hodisasida jarangsiz undosh jarangli undoshga almashmagan?

- A) Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni yiqar.
B) Ona yurtning – oltin beshiging.
C) Ilm – dilning chirog'i, maktab – ilm chorbog'i
D) Xalqqa ergashgan haqqa yetishadi.

5. Qaysi gapda yo'l qo'yilgan imloviy xatolik jarangsiz undoshning jarangli juftini yangilash natijasida yuzaga kelgan?

A) Ikki kundirki, daryo bo'yida shavqatsiz jang boradi.

B) Fan-texnika yutuqlari hayotimizga tatbiq etilmoqda.

C) Har bir odam mammanlikni yelkadan oshirib, kamtarlikni boshga ko'tarishi kerak.

D) Bu inshoot Navoiyning sevimli maskani edi.

6. “Ikkinchi qismi turdosh o' yoki obod so'zi bilan yasalgan joy nomlari qo'shib yoziladi”.

Ushbu qoida asosida yozilmagan so'z qaysi javobda berilgan?

- A) Uchqo'rg'on B) Oqtepa
C) Ko'hna Urganch D) Davlatobod

7. “Har, hech, bir, u, shu, o'sha, hamma kabi so'zlar o'zi birikib kelgan so'zdan ajratib yoziladi”.

Ushbu qoidaga muvofiq yozilgan so'z qaysi javobda berilgan?

- A) bir oz B) bir pas
C) bir varakayiga D) bir zum

8. Qaysi gapda bosh harflar imlosi bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?

A) O'zbekiston Milliy bog'i hududida keng ko'lamlil bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

B) “O'zbekiston qahramoni” unvoni Abdulla Ori-povga bejiz berilmagan.

C) “Adiblar xiyoboni”ga kelgan kishi tabiat go'zal-liklaridan bahra olib qaytishi shubhasiz.

D) “Bolajon” telekanalida yosh tomoshabinlar uchun ko'plab ko'rsatuvlar namoyish etiladi.

9. Quyidagi hukmlardan nechtasi to'g'ri?

1. Juft va takror so'zlar orasida chiziqcha ishlatiladi.

2. Juft so'zlar orasida *-u, -yu* qo'shimchasi ishlatilsa, ular birinchi so'zdan chiziqchasiz ajratib yoziladi.

3. So'zning *-ma, ba-* yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi.

4. *-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey* kabi so'zga qo'shimcha ma'no yuklovchi qo'shimchalar chiziqchasiz yoziladi.

5. Bilan va uchun so'zlarining qisqargan *-la* va *-chun* shakli ajratib yoziladi.

- A) ikkitasi B) to'rttasida
C) bittasi D) beshtasi

10. Qaysi qatorda bo'g'in ko'chirish qoidasi buzilmagan?

- A) de-ngiz B) mu-do-fa-a
C) ma-'lum D) ke-nguru

11. Javoblarning qaysi biridagi omonim juftlik faqat ot turkumi doirasida kuzatilgan?

A) Rang ko'r, hol so'r. Ko'r hassasini bir mar-ta yo'qotadi.

B) Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar tera-di. Esing borida biron kasbning etagini tut.

C) Qovun ekkan qovoq olmas. Uning qovog'idan qor yog'ilar edi.

D) Yer – xazina, suv – gavhar. Mehnat qilgan katta yer.



12. Ushbu rasmdagi harakatni ifodalovchi so'zning omonimi qaysi gapda berilgan?

A) Birni qirsang o'nni ek.

B) Buxoroning Eski shahar qismida qirqta chinor bo'lib, tarixi ming yilliklarga borib taqaladi.

C) Borida shukur qil, yo'g'ida qanoat.

D) Ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz kerak.

13. Qaysi qatordagi antonim juftlik yangi ma'noli so'z hosil qilmaydi?

A) yosh-u qari B) uzoq-yaqin

C) achchiq-chuchuk D) ota-ona

14. Qaysi javobda paronimlarni noo'rin qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud?

A) Qassob savdo rastasiga lahm go'shtlarni chiqarib go'yoki xaridorlarni chorlardi.

B) Otning abzalini biroz to'g'irlagan Otabek yana yo'lga ravona bo'ldi.

C) Xiyla ishlatgan har bir inson kun kelib o'zi ham fitna qurboni bo'ladi.

D) Tana harorati ko'tarilgan bemorlar shifo-xonaga joylashtirildi.

15. Qaysi gapdagi antonim so'zlar birga-likda qo'llanib, yangi so'z hosil qilgan?

A) Bo'z bola hali turmushning achchiq-chuchugini totmagan, turmush tajribasi yo'q yigit.

B) Mendan xavotir olmag, og'a, achchiq-chuchukni totib, ko'zim ochilib ketgan.

C) Ahmad uyiga kirib borganida Munira achchiq-chuchuk tayyorlayotgan ekan.

D) Bu hayotning achchiq-chuchugiga ko'ngan inson o'z yo'lini topishga qiynalmaydi.

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 5-sinf “Ona tili” darsligining 122–155-betlaridagi mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularni qunt bilan o'rganing.

MATEMATIKA

(Butun sonlar ustida amallar [1-qism])

16. $-1, 25$ soniga teskari bo'lgan sonning qarama-qarshisining qismini toping.

- A) $\frac{4}{25}$ B) $-\frac{4}{25}$ C) $\frac{1}{4}$ D) $-\frac{1}{4}$

17. Hisoblang. $(-2 \cdot 3 + 2 \cdot (-10) - (-2) - 12) \cdot (-2 + (-3))$

- A) 66 B) -36 C) 30 D) -66

18. $EKUB(a;b) + EKUB(a;b) = 392$ a va b tub sonlar bo'lsa, $a+b=?$

- A) 45 B) 40 C) 48 D) 56

19. Hisoblang. $\left(0,5 - \frac{1}{0,5 - \frac{1}{0,5 - \frac{1}{0,5}}}\right)$

- A) 5 B) 13 C) -5 D) -21

20. Agar 2000 ta musbat sonlar yig'indisi 2001 ga teng bo'lsa, ularning ko'paytmasi nimaga teng?

- A) 1 B) 2 C) 2001 D) 2000

21. 10 km ga yugurish musobaqasida Komronbek 9445 m yugurdi, 3456 dm yurdi va 123400 mm dan so'ng to'xtadi. Uning finishga yetib borishigacha yana necha sm qolgan?

- A) 8,6 B) 86 C) 8600 D) 860

22. $0,01$ ga teskari sonning natural bo'luvchilari soniga teng sonning natural bo'luvchilari yig'indisini toping.

- A) 6 B) 50 C) 12 D) 13

23. $\frac{|-12| + |-8|}{|5|} - \frac{|+13| - |-28|}{|-5|}$ ni

hisoblang.

- A) -7 B) 7 C) -6 D) 2


24. O'quvchi kitob o'qimoqda. Birinchi kunda u kitobning yarmini, ikkinchi kunda qolganining uchdan birini, uchinchi kunda qolganining to'rttdan birini, to'rtinchi kunda qolganining beshdan bir qismini o'qidi. Kitobning qancha qismi o'qilmay qoldi?

- A) $\frac{1}{10}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{1}{5}$ D) $\frac{1}{12}$

25. Hayvonot bog'ida yashaydigan bo'rilarning yoshlar yig'indisi 36 ga teng. Ikki yildan so'ng ularning yoshlar yig'indisi 60 ga teng bo'lsa, hayvonot bog'ida nechta bo'ri yashaydi?

- A) 18 ta B) 12 ta C) 24 ta D) 30 ta

26. Tomoni 1 ga teng bo'lgan kvadrat tomoni atrofida quyida ko'rsatilgandek aylantirilmoqda. “?” o'rnida qaysi raqam hosil bo'ladi?



- A) 0 B) 1 C) 2 D) 3


27. -2021 dan 2020 gacha nechta butun son bor?

- A) 2020 ta B) 4040 ta
C) 4042 ta D) 2021 ta

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 3-varianti

28. $[-2, 7] + [3, 6]$ ning qiymati nimaga teng? ([a] – a ning butun qismi)



A) 0 B) 1 C) -1 D) 2

29. Quyidagi sonlardan qaysi biri *semiz sonlar* bo'ladi? (Semiz son – o'zidan boshqa bo'luvchilar yig'indisidan kichik bo'lgan son)

A) 25 B) 36 C) 27 D) 27

30. Chizmada keltirilgan to'g'ri to'rtburchakni necha foizi bo'yalgan?

A) 30% B) 40% C) 50% D) 60%

UYGA VAZIFA. Keyingi sonda "Butun sonlar ustida amallar" mavzusi bo'yicha qiyinroq testlar varianti beriladi, bunda testlar 5-, 6- va 7-sinf materiallari asosida tuziladi. Shu mavzularni chuqurroq o'rganishga harakat qiling!

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI (6-sinf darsligi doirasidagi testlar)

31. Quyidagi voqealar to'g'ri xronologik tartibda berilgan javobni toping.

- 1) Yevtidem Yunon-Baqtriya taxtiga chiqdi;
 - 2) Xorazmda Ko'zaliqir shahri vujudga keldi;
 - 3) Kushon davlatida Vima Kadfiz hukmdor nomi ko'rsatilgan tangalar zarb qildira boshladi;
 - 4) O'rta Osiyoda temirdan yasalgan ilk mehnat qur-ollari tarqaldi;
 - 5) Aleksandr Sharqqa yurish boshladi.
- A) 2, 4, 5, 3, 1 B) 4, 2, 5, 1, 3
C) 2, 4, 1, 4, 3 D) 4, 2, 5, 3, 1

32. Hududidan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tgan davlat poytaxti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Bityan B) Ershi
C) Ko'zaliqir D) Sho'rabashat

33. Quyidagi manzilgohlardan qaysi biri ilk paleolit davriga oid?

A) Teshiktosh B) Zarautsoy
C) Jarqo'ton D) Selungur

34. Qaysi juftlikda bir-biriga zamondosh bo'lgan tarixiy shaxslar berilgan?

A) Kir II – Skunxa B) Doro III – Salavk
C) Bess – Ravshanak D) Arrian – Poliyen

35. Quyidagilardan qaysi biri eng qadimgi tasviriy san'at rivojlanishi uchun asos bo'ldi?

- A) urug' jamoalarining paydo bo'lishi
- B) Buyuk muzlik davrining boshlanishi
- C) qadimgi odamlarning o'troq turmush tarziga o'tishi
- D) odamning o'zini qurshab turgan tevarak dunyoni tushunishga intilishi

36. Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun necha yil harakat qilgan?

A) 10 yil B) 7 yil C) 3 yil D) 5 yil

37. Quyidagi qadimiy shaharlar joylash-

gan hududlar va ularga oid ma'lumotlarni muvofiqlashtiring.

- I. Oybo'yirqal'a; II. Afrosiyob; III. Xolchayon.
 - 1) Surxondaryo; 2) Xorazm; 3) Samarqand.
- a) mil. avv. VIII–VII asrlarda asos solingan;
 - b) mil. avv. V–IV asrlarga taalluqli xum sirtiga bitilgan yozuv topilgan;
 - c) kushon hukmdorlari saroyi joylashgan.
- A) I. 2-a; II. 3-b; III. 1-c B) I. 1-b; II. 2-a; III. 3-c
C) I. 1-a; II. 2-c; III. 3-b D) I. 2-b; II. 3-a; III. 1-c

38. Quyidagi qaysi voqea 6–4-ming yilliklarda sodir bo'lgan?

- A) mikrolitlardan foydalanib, toshga ishlov berishning parmalash va silliqlash usullari kashf etildi
- B) ilk turar joylar qurila boshlandi
- C) odamlar jun va tolalardan kiyim-kechak tayyorlay boshlashdi
- D) Qadimgi Sharqning turli viloyatlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tildi

39. Xitoyning qaysi imperatori o'z saroyi yaqinida Farg'onadan keltirilgan beda urug'ini ektirishga buyruq bergan?

A) Sin Shixuandi B) Lyu Ban
C) U-Di D) Li Yuan

40. Quyidagi voqealardan qaysi biri o'rta tosh davrida sodir bo'lgan?

- A) dastlabki diniy e'tiqodlarning shakllanishi
- B) chopqir hayvonlar va qushlarni ovlash imkoniyatining vujudga kelishi
- C) ilk taqinchoqlar – munchoqlar, tumorlar va uzuklarning yasala boshlashi
- D) sopol idishlar hayvonlar, qushlar tasvirlari va o'simlik naqshlari bilan bezatila boshlanishi

41. O'rta Osiyodagi eng qadimgi yozuv qaysi hududdan topilgan?

A) Surxondaryo vohasi B) Samarqand viloyati
C) Farg'ona vodiysi D) Xorazm vohasi



42. Rasmda aks etgan tarixiy shaxs haqida bildirilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) rivoyatlarga ko'ra, hiyla orqali fors qo'shinlarini yetti kun mobaynida cho'l bo'ylab kezdirib, halok bo'lishiga sababchi bo'ladi.
- B) mil. avv. VI asrning so'nggi choragida Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi qo'zg'olon ko'taradi.
- C) mil. avv. IV asrda O'rta Osiyoga bostirib kirgan yunon-makedon qo'shinlariga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga boshchilik qiladi.
- D) mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida bostirib kirgan fors qo'shinlariga qarshi jangda halok bo'ladi.

43. Makedoniyalik Aleksandr quyidagi qaysi shaharni boshqalariga nisbatan oldinroq bosib olgan?

A) Nautaka B) Maroqanda
C) Kurushkat D) Zariasp

44. O'rta Osiyoda zardushtiylik dini nechanchi asrgacha saqlanib qolgan?

A) VIII asrgacha B) X asrgacha
C) XII asrgacha D) VII asrgacha

45. Quyidagi qaysi voqea Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan asrdan keyin sodir bo'lgan?

- A) Parfiya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqdi
- B) Xorazm Ahamoniylar davlati tarkibidan ajralib chiqdi
- C) Qang' qudratli davlat birlashmasiga aylandi
- D) Xorazmda ilk shaharsozlik boshlandi

UYGA VAZIFA. Keyingi sonda 7-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligining kirish qismi hamda 1–7-paragraflari asosida tuzilgan testlar taqdim etiladi. Bir hafta davomida ushbu mavzularni o'qib, undagi bilimlarni o'zlashtirib oling.

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti
talabasi, repetitor

3-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
C	B	B	D	A	C	D	B	A	A	C	B	D	C	C
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
A	C	B	C	B	C	D	B	C	B	D	C	A	B	B
O'ZBEKISTON TARIXI														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
B	A	D	D	D	C	D	B	C	B	D	C	D	A	B

Elementar zarralar elementarmi?

(Davomi. Boshi 23-sentabr sonida).

Har qalay shuni aytish mumkin, $L_0 = 1,61 \cdot 10^{33}$ sm va $r = 2,8 \cdot 10^{-13}$ sm bo'lgan masofalar oralig'idagi hech bir qiymatdagi masofa yagona fundamental rol o'ynay olmaydi va bu yerda faqat bevositalikdan mustasno bo'lgan nazariy argumentlar mavjud. Quyida shunday argumentlardan birini qarab chiqamiz. Bu argument umumiy nisbiylik nazariyasini tahlil qilishga taalluqlidir.

Ma'lumki, Eynshteyn nazariyasida moddiy jismning tortishish maydonidagi harakati "egrilangan" fazo va vaqtda eng qisqa chiziq orqali amalga oshadi deb qaraladi. Fazo va vaqtning "egrilanishi" eng qisqa uzunlikka "to'g'ri" chiziq emas, balki fazo va vaqt bo'yicha "egrilangan" chiziqqa ega bo'ladi: $x=f_1(t)$, $y=f_2(t)$, $z=f_3(t)$, bu yerda f_1 , f_2 , f_3 lar chiziqli bo'lmagan funksiyalar.

Eynshteyn nazariyasida fazoning egriqlanish kattaligini quyidagicha topish mumkin: massaga (energiyaga) ega bo'lgan jism atrofiga fazoga egriqlantiruvchi "kuch" ta'sir qiladi (bu yerda "kuch" so'zi umumlashgan holda). Fazo bir vaqtda "elastiklik" xususiyatiga ega bo'lib, u go'yoki egriqlanishga qarshilik ko'rsatadi. Bu ikki "kuch"ning muvozanati egriqlanish haqiqiy darajasini aniqlaydi. Odatda, Evklid geometriyasi bilan ifodalanuvchi fazo xususiyatining chetlanishi juda kichik. Ya'ni fazoning "elastikligi" juda katta. Bu, masalan, gravitatsiya doimiysining juda kichik miqdorga ega ekanligiga mos keladi.

Vakuuning "elastikligi" nima bilan aniqlanadi? Buni vakuumdagi kvant fluktuatsiyalanishlar (chetlanishlar) sababli deb taxmin qilish mumkin. Fazo-vaqtning egriqlanishida bu fluktuatsiyalar "quyuqroq" bo'ladi va ular go'yoki "qirg'oqlardan chiqib ketadi". Bu esa vakuum energiyasining oshishiga olib keladi. Agar eng "qisqa to'liqli" fluktuatsiyalarni hisobga olinsa, u holda bu effekt cheksiz katta bo'lishi mumkin. Agar $L_0 \sim 10^{33}$ sm. dan katta bo'lgan l to'liqli uzunligi bilan chegaralansak, u holda "fazo elastikligi koeffitsiyenti"ga teskari mutanosiblikda bo'lgan G gravitatsiya doimiysining kattaligi to'g'ri son qiymatiga ega bo'ladi.

L_0 chegaradan kichik bo'lgan sohada nima bo'ladi? 10^{33} sm. dan kichik masofalardagi va 10^{28} eV dan katta energiyalardagi jarayonlarni ifodalash uchun nazariyaga qanday o'zgartirishlar kiritish lozim? Bu haqda hali biror-bir sezilarli qadam tashlanganicha yo'q. 10^{28} eV energiya hozirda insoniyat imkoniyati ega bo'lgan (14 TeV, katta adron kollayderida uchrashuvchi dastalar energiyasi) real energiyadan juda uzoq va shu sababli bu muammolar majmuasini hal etish yaqin va, ehtimol, uzoq kelajak uchun ham jumboq bo'lib qolaveradi.

Elementar zarralar fizikasini o'rganish ketma-ketligi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Yuqori energiyali zarralar.
2. Elementar zarralar fizikasining paydo bo'lishi – Yukava zarralari.
3. Zarracha va antizarracha.
4. Zarralarning o'zaro ta'sirlashuvi va saqlanish qonunlari.
5. Elementar zarralar klassifikatsiyasi.
6. Turg'un va rezonans zarralar.
7. G'alati zarralar.
8. Kvarklar.
9. "Standart model" – Kvant xromodinamikasi va elektrokuchsiz o'zaro ta'sir.
10. Buyuk Birlashtirish nazariyasi.

Elementar zarralar fizikasidagi asosiy terminlar va tushunchalar quyidagilar:

Adronlar — barionlar va mezonlar guruhidagi zarralar birgalikda adronlar deyiladi. Bu zarralar tarkibi ikkita (mezonlar) yoki uchta (barionlar) kvarkdan tashkil topgan va kuchli o'zaro ta'sirlashuvlarda qatnashuvchi zarralardir.

Anniqiyatsiya — zarra va antizarralar bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashganda bir-birini yo'qotib boshqa zarrani hosil qilish jarayoni.

Antizarra — berilgan zarra massasi, spini va yashash vaqtiga, lekin qaram-qarshi zaryadli kvant sonlariga (elektr zaryadi Q , barion zaryadi B , lepton zaryadi L va b.) ega bo'lgan zarralar. Haqiqiy neytral zarralar (foton, π^0 -mezon va b.) zaryadli kvant sonlariga ega bo'lmagan o'zlarining antizarralari hisoblanadi.

Asimptotik erkinlik — kvark va glyuonlarning xususiyatlari, ushbu zarralar orasidagi masofaning kamayishi bilan ular orasidagi kuchli ta'sirlashuv susayadi.

Barionlar — yarim spinga ega bo'lgan adronlar. Barionlar $B=+1$, antibarionlar $B=-1$ barion kvant sonlari bilan xarakterlanadi. Barionlar uchta kvarkdan tashkil topgan zarralardir.

Bog'lanish doimiylari (o'zaro ta'sirlashuv doimiylari) — zarralarning ta'sirlashuv kuchini xarakterlovchi parametrlar.

Bozonlar — spinlari butun songa ega bo'lgan zarralar. Har bir kvant holatida hosilaviy sonli zarralarning joylashishiga imkon yaratuvchi Boze-Eynshteyn statistikasiga bo'ysunuvchi ko'plikdagi bozonlar sistemasi. Bozonlarga misollar: foton, mezonlar, hamda $4He$ yadro, $4He$ atomi va boshqalar.

Elastik sochilish — ikkita zarraning to'qnashuvi natijasida ularning ichki tuzilishi o'zgar olmaydi, yangi zarralar hosil bo'lmaydi, faqat ularning impulslari o'zgaradi.

Fizik vakuum (kvant maydoni nazariyasida) — kvant maydonlari sistemalarining eng past energetik holati. Zarralarning o'rtacha soni, ya'ni maydon kvantlarining soni nolga teng. Biroq virtual zarralar jufti hamda noldan farqli kvant sonlari hosil bo'lishi mumkin.

Foton — zaryadi va tinch holat massasi nolga, spini birga teng bo'lgan el-

ementar zarra. Elektromagnit maydon kvanti. Fotonlarning zaryadli zarralar tomonidan yutilishi va chiqarilishi barcha elektromagnit jarayonlar asosida ro'y beradi.

Giperonlar — g'alatiligi noldan farqli bo'lgan barionlar.

Glyuonlar — kvarklar o'rtasida kuchli ta'sirlashuvlarni amalga oshiruvchi spinlari birga teng, rang zaryadiga ega bo'lgan massasiz zarralar.

Kalibrovik bozonlar — spinlari 1 ga teng bo'lgan elementar zarralar. Ular o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv ma'lum bo'lgan ta'sirlashuvlar orqali amalga oshadi. Bularga elektromagnit, kuchli va kuchsiz ta'sirlashuv uzatuvchilari — fotonlar (g), glyuonlar (g), W^\pm va Z^0 bozonlar kiradi.

Kvant maydoni nazariyasi — elementar zarralarning tug'inishi, ta'sirlashuvi va yo'qolishi jarayonlarini o'rganuvchi relyativistik kvant hodisalar nazariyasi.

Kvant mexanikasi — mikroolamning keng doiradagi hodisalarini tushuntiruvchi fundamental fizik nazariya. Kvant mexanikasi o'rganuvchi tizimlar zarra tabiatiga ham, to'liq tabiatiga ham ega bo'lgan tizimlardir.

Kvant sonlari — zarralarni (va kvant sistemalarini) xarakterlovchi fizik kattaliklarning mumkin bo'lgan diskret qiymatlarini aniqlovchi butun yoki kasr sonlar. Zarralarning elektr, barion va lepton zaryadlari, spini, izotopik spini, rangi, g'alatiligi, maftunkorligi, go'zalligi va boshqalar ularning kvant sonlari bo'lib hisoblanadi.

Kvant xromodinamikasi (KXD) — kvark va glyuonlarning rang zaryadlariga asoslangan ta'sirlashuv nazariyasi.

Kvant elektrodinamika (KED) — elektromagnit o'zaro ta'sirlashuvlarning kvant nazariyasi.

Kvarklar — spinlari 1/2 va elektr zaryadi elektron zaryadi birligida kasr qiymatli ($-1/3$ yoki $+2/3$) bo'lgan elementar zarralar bo'lib, adronlarning tarkibiy qismini tashkil etadi. Barionlar uchta kvarkdan, mezonlar — kvark va antikvarkdan tashkil topgan. Kvarklarning olti turi (hidi) mavjud: u, d, s, c, b, t. Kvarklar rang zaryadiga ega.

Kesim — ikkita to'qnashuvchi zarralarning o'zaro ta'sirlashuv ehtimoliyatini xarakterlovchi kattalik. Yuza o'lchamiga ega. Odatda δ harfi bilan belgilanadi. Kesim — sm^2 yoki barnlarda o'lchanadi ($1b = 10^{-28} sm^2$). To'qnashuvning to'liq kesimi utot σ_{tot} (inglizchadan «total» — «to'liq»), sochilishning elastik kesimi el (inglizchadan «elastic» — «elastik») va barcha noelastik jarayonlar kesimi Yin el (inglizchadan «inelastic» — «noelastik») yig'indisidan iborat.

$Y_{tot} = Y_{el} + Y_{inel}$.

Kompton effekti — kichik to'liq uzunlikka ega bo'lgan elektromagnit nurlanishlarining erkin (yoki kuchsiz bog'langan) elektronlarda sochilishi. Bu jarayonda elektron tepki energiyasini oladi, fotonning energiya va impulsi kamayadi, to'liq uzunligi ortadi.

Kosmik nurlar — asosan protonlardan tashkil topgan, kosmik fazodan (birlamchi nurlanish) Yerga tushuvchi yuqori energiyali zarralar hamda

birlamchi zarralarning atmosfera jismlari bilan to'qnashishidan hosil bo'lgan ikkilamchi zarralar oqimi. Tezlatkichlar yaratilgunga qadar kosmik nurlar yuqori energiyali zarralarning yagona manbasini edi.

Leptonlar — kuchli ta'sirlashuvlarda ishtirok etmaydigan, spinlari 1/2 ga teng bo'lgan elementar zarralar. Uch xildagi zaryadli leptonlar mavjud: elektronlar (e), myuonlar (m), tau-leptonlar (f) va ularga mos bo'lgan uch xil neytrino: elektron (ne), myuon (nm) va tau-lepton (nt) neytrinolari. Leptonlar $L=+1$ qiymatli lepton kvant soni, antileptonlar esa $L=-1$ qiymatli kvant soni bilan xarakterlanadi. To'la lepton soni: $L = L_e + L_m + L_f$, bu yerda L_e , L_m va L_f — zarralarga mos keluvchi lepton sonlari.

Massa — zarra yoki zarralar sistemasini xarakterlovchi kattalik. m massali jism E — energiyasi va p — impulsi bilan quyidagi munosabat orqali bog'langan: $m^2 c^4 = E^2 - p^2 c^4$, bu yerda c — yorug'lik tezligi. C=1 birliklar sistemasida, $m^2 = E^2 - p^2$.

Mezonlar — butun spinga ega bo'lgan adronlar. Mezonlar kvark va antikvarklardan tashkil topgan zarralardir. Barcha mezonlar noturg'un bo'lib, ularning yashash vaqti: $t \leq 10^{-8}$ s.

Orbital moment — zarralarning boshqa zarralarga (xususiy harakat miqdori — spinidan farqli ravishda) nisbatan fazodagi harakati tufayli paydo bo'lgan harakat miqdori momenti.

Plank doimiysi — kvant nazariyasining fundamental doimiyligi, ta'sir kvanti: $\hbar = h/2\pi = 1,0546 \cdot 10^{-27}$ erg · s = $6,5822 \cdot 10^{-25}$ GeV · s.

Relyativistik tezlik — yorug'lik tezligiga yaqin tezlik.

To'liq funksiyasi — kvant mexanikasida mikroobyektning holatini ifodalovchi asosiy kattalik. Agar zarraning to'liq funksiyasi $\psi(x, y, z, t)$ bo'lsa, u holda $\psi(x, y, z, t)$ koordinatalari x, y, z bo'lgan zarraning vaqtning t momentidagi topilish ehtimoliyatini aniqlaydi.

O'ta noelastik jarayonlar — katta energiya va katta q impuls uzatilishi bilan (bunda albatta $|E^2 - q^2| \gg 1$ GeV) adronlarning ko'plikda tug'inish jarayonlari.

Fermionlar — yarim butun spinga ega bo'lgan zarralar. Aynan bir xil bo'lgan fermionlar tizimlari Fermi-Dirac statistikasiga bo'ysunadi va bunga ko'ra har bir kvant holatda faqat bitta zarra joylashishi mumkin.

Yemirilish ehtimoliyati — noturg'un zarralarning yemirilish intensivligini xarakterlovchi kattalik; vaqt birligi ichida yemiriluvchi zarralar ulushiga teng va s-1 o'lchamiga ega. Yemirilish ehtimoliyati $w = -1/N \cdot dN/dt = 1/\tau$ ga teng, bu yerda N — zarralar soni, τ — zarralarning yashash vaqti. Yemirilish eksponensial qonun bo'yicha sodir etiladi, $t, N/N_0 = e^{-t/\tau}$ vaqtgacha yashovchi zarralar ulushi.

Rashid ESHBO'RIYEV,
SamDU-yadro fizikasi kafedrasini mudiri;
Mamadali SULTONOV,
fizika-matematika fanlari nomzodi;
Aziza QAHHOROVA,
Fizika fakulteti 4-kurs talabasi;
Rustam SAYFINOV,
Fizika fakulteti 4-kurs talabasi

Maktabgacha ta'lim

Bolalar qamrovi yetmish foizga yetkaziladi

Yosh avlod tarbiyasida maktabgacha ta'limning o'rni katta. Taraqqiy etgan davlatlar tajribasi ham buni tasdiqlaydi. Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda sohani rivojlantirishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori va 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu borada qilinayotgan ishlarning istiqbolini belgilab berdi.

2017-yilda Jizzax viloyatida atigi 172 ta davlat maktabgacha ta'lim muassasasi va bitta nodavlat MTM faoliyat ko'rsatgan. 3-6 yoshli bolalar 106 ming 802 nafarni tashkil etib, ularning 19,5 foiz bog'chalarga qamrab olingan. Mavjud muassasalardagi sharoitlar talab darajasida emasligi xizmatlar sifatining past bo'lishiga olib kelgan. Ko'pchilik muassasalar ta'mirlalab bo'lib qolgan.

2018-yilda yuqoridagi Farmoning ijrosini ta'minlash

ta davlat xususiy sherikchiligi asosidagi 14 ta xususiy va 458 ta oilaviy nodavlat MTMLar tashkil etilishi natijasida qamrov 56,7 foizga yetkazildi.

Viloyatimiz aholisining

bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish to'g'risida"gi qarori bu boradagi muammolarni hal etishga imkon yaratdi. Baxmal tumanidagi 2-MTT qoshida olis G'allakon, Sangzor, Baxmal MFYlarida mobil guruhlar tashkil etildi. Natijada 120 nafar 3-6 yoshli bolalar ushbu guruhlar qamrab olindi. Mobil guruhlar zamon talablariga javob beradigan va qayta jihozlangan ISUZU NS 40 avtobuslarida tashkil etilgan. Bunday tajriba kelgusida boshqa tumanlarda ham amalga

ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Hozir 6 yoshli bolalar viloyatimizda 25 650 nafar. Ularning 17 966 nafari davlat va nodavlat MTTdagi 300 ta maktabga tayyorlov guruhlari va 422 ta qisqa muddatli guruhlariga jalb etilgan. Bu boradagi qamrov 70 foizni tashkil etyapti. Kelgusida viloyatimizda 20 ta qisqa muddatli, 13 ta to'liq kunli, 72 ta majburiy bepul tayyorlov guruhlari tashkil etilib, qamrovni 77,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Oldinda yana katta maqsadlarimiz bor. Yil davomida 3-6 yoshli bolalar qamrovini 70,7 foizga yetkazishni niyat qilganmiz. Buning uchun yana 150 ta oilaviy nodavlat MTT, Investitsiya dasturi asosida 6 ta yangi davlat MTM quriladi va 14 ta MTT rekonstruksiya qilinadi. Shuningdek, Jizzax shahridagi "Navro'z" MFY hududidagi 1-MTT, Paxtakor tumanidagi 7-MTT, Mirzacho'l tumanidagi 15-MTT ham ta'mirlanadi.

Barcha MTTlar zamonaviy o'quv-uslubiy qurollar va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanyapti. Mashg'ulotlarni qiziqarli va sifatli olib borish uchun zarur jihozlar yetarli. Tizimda xizmat qilayotgan ishchi xizmatchilarga sanitariya-gigiyena qoidalari amal qilish bo'yicha maslahat va tavsiyalar berilmoqda. Ota-onalar bilan onlayn tarzda muloqot yo'lga qo'yilgan.

Nizomiddin TOSHBKOV,
Jizzax viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi boshlig'i



borasida anchagina ishlar qilindi. Turli mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti soni 242 taga yetkazildi. Natijada 3-6 yoshli bolalar qamrovi 31,9 foizga yetdi. 2019-yilda bu boradagi ishlarimiz yanada salmoqli bo'ldi. 192 ta davlat, 40

ko'pchilik qismi qishloqlarda istiqomat qiladi. Sir emas, ayrim olis qishloqlarda maktabgacha ta'lim muassasasi barpo etish imkoniyati yo'q. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-sentabrdagi "Mobil guruhlar

oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sog'lom, faol, ijtimoiy moslashtirilgan bola shaxsini shakllantirish va bolalarni boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash maqsadida keng

Sarimskov Xurshid Abdimalikovichning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek tillarida sport terminlarining chog'ishtirma tadqiqi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 14-oktabr kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,

Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"A" uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Isroilova Dildora Muxtorovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalarni fanlar bog'liqlikda kasbga yo'naltirilgan ingliz tiliga o'qitish (texnologiya fakulteti misolida) (Профессионально ориентированное обучение студентов английскому языку с учётом межпредметных связей в нефилологических вузах (на примере технологического факультета))" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 14-oktabr kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,

Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"A" uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Ismatova Ra'no Axadovnaning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Suva eruvchan tabiiy va sintetik polimerlar asosida kompozitsiyalar olish va amaliyotda qo'llash" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03.30.12.2019.T.78.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 7-oktabr kuni soat 15:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.

Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Akbarxodjayeva Ziyoda Abdulkayevnaning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Ishemik insult natijalarini terapevtik yondashuvga bog'liq holda klinik-nevrologik va neyrovizualogik prognoz qilish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 14-oktabr kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100007, Toshkent shahri, Parkent ko'chasi, 51-uy.

Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@tipme.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Kasbga qayta tayyorlash va malaka oshirish markazi tomonidan 2019-yilda Choriyeva Iqlima Yo'ldosh qizi nomiga berilgan qayta tayyorlov haqidagi QT № 056639 raqamli DIPLOM yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI.

2004/2005-o'quv yilida 11-sinfni tamomlagan Yuldashev Oybek Mo'ydinovichga Farg'ona viloyati, Uchko'priq tumanidagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi tomonidan berilgan O'RSH № 0017333 raqamli shahodatnoma yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" teleradiokanalini jamoasi "O'talar so'zi - aqlning ko'zi", "O'talar so'zi - aqlning ko'zi" pochtasidan ko'rsatuvlari boshlovchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

To'xtamurod ota ZUFAROVning

vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga ta'ziya bildiradi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Kimyo fakulteti professori, kimyo fanlari doktori

Abdusafi YULCHIBAYEVning

vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga ta'ziya bildiradi.

E'ZOV

Bu voqea o'tgan asr yetmishinchi yillarining o'rtalarida bo'lib o'tgan edi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Xadicha aya Muzaffarova xuddi chaqaloqning mushtiday keladigan laylakqorning yog'ishiga zavq bilan termular ekan, ko'nglining bir chetida biroz g'ashlik ham yo'q emasdi. Ertaga ko'mir bilan ishtiladigan sinfxonada bolajonlar sovuq qotib qolishmasmikan? Shu xayollar iskanjasida ayaning uyqusini ham bo'lmadi. Tongdan erta uyg'onib uydagilar uchun nonushtani hozirlab qo'yib, ertaroq borib sinfxonadagi pechga o't yoqib, bolalar kelguncha isitib qo'yish maqsadida ishga otlandi. Ko'cha darvozasining bir qavatini ochib ostona hatlab ko'chaga chiqishi bilan ro'parasidagi qo'shni eshigi ochilib, qalin ro'mol o'ragan ayol ko'rindi.

– Mana buni qarang, – dedi ayol. Qo'shni bilan hol-ahvol so'rasharkan ortidagi qizaloqqa imo qilib. – Ustozim bilan birga maktabga ketaman deb sa-harmardonda turib olibdi. Ikki soat oldin borib olib nima qiladi, hayronman. Qo'y deganimga qaramaydi.

Xadicha aya tirishqoq, aytganini qo'ymaydigan, birinchi sinfdan buyon etagidan mahkam tutgan o'quvchisiga mehr bilan qaradi.

– Mayli, xavotir olmang. Men bilan boradi. Bu mening eng yaqin yordam-chim.

Shu taxlit ustoz-shogird maktabga hammadan oldin kelib sinfxonani o'quvchilar kelishga shay qilib qo'yishardi. Maktabda barcha o'z onasidek yaxshi ko'radigan bu ustozga bo'lgan havas qo'shni qizaloqda ham o'qituvchi bo'lishdek sharafli kasbga mehr uyg'otgan edi. Xadicha aya yonida yurish yoki u kishi bergan topshiriqni bajarish bolalar uchun sharaf edi. Ustoz qanotidan chiqqan sinf yuqori sinf o'qituvchilari tomonidan doim talash edi. O'quvchilarini navbatdagi yuqori sinfga kuzatish oldidan Xadicha aya har bir bolani bag'riga bosar ekan, tanlagan yo'lida sobit bo'lishini alohida tayinlardi.

– Mohin qizim – dedi qo'shni qizni mehr bilan bag'riga bosarkan. – Sen albatta o'qituvchi bo'lgim. Sendagi g'ayrat, shijoat albatta maqsadingga eltadi.

Vaqt yugurik. Mohin ustozining orzusini amalga oshirish uchun qunt bilan o'qidi. Maktabni bitirgach, Turkiston tumanidagi pedagogika bilim yurtida o'qishni davom ettirdi. O'qishni tamomlagach, maktabda o'qituvchilik qila boshladi. Otasi, adabiyot ixlosmandi G'ayrat akaning kitoblar haqidagi bir-biridan qiziqarli fikrlari, yozuvchi va shoirlar haqidagi diltortar suhbatlari qizning adabiyot olamiga intilishini yanada kuchaytirdi. Shu tariqa Eski Iqon qishlog'ilik yosh muallima Toshkent tomon yo'l oldi.

1985-yili Nizomiy nomidagi pedagogika institutining o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi bo'ldi. Bu yerda Natan Mallayev, Asil Rashidov, Samixon Ashirboyev, Fayzulla Nabiyevo kabi adabiyotimiz bilimdonlaridan olgan saboqlari Mohin opaning adabiyotga muhabbatini yanada alangaladi. O'z navbatida, bu sa'y-harakatlar o'z samarasini berib, institutni imtiyozli diplom bilan bitirishga muvaffaq bo'ldi.

Bu gaplarni opaning ustozlar haqidagi maqolalari va xotiralari asosida bilib olganimiz. Endi bu fidokor muallima

– Yo'q-yo'q, – dedi opa jilmayib. – Metrodan chiqayotib, zinapoyada sirg'anib ketgandek bo'ldim. Shunga biroz qo'lim zirqirayapti.

– Unday bo'lsa boshqa biror hamkasbingizni chaqirtiraylikmi?

– Hojati yo'q, – dedi opa qo'lini asta silarkan. – Bolalarim bu kunni orziqib kutishgan. Ular yozuvchi va shoirlarimiz bilan yaqindan tanishish orzusida. Ularni tashlab ketolmayman.

– Unday bo'lsa, hech bo'lmasa shifokorga bir uchrab olsangiz bo'larkan, –



Umida Abduazimova kabi ijodkorlar bilan ko'p bora adabiyot borasida ijodiy muloqotda bo'lishgan. «Gulxan» jurnali, «Tong yulduzi» gazetasi xodimlari bilan ijodiy uchrashuvlar hamisha maroqli o'tadi – deydi opa mamnun bo'lganicha.

Xalq ta'limi a'lochisi Mohin Omarovanning bir necha dars ishtiraklarini nufuzli hay'at a'zolari tomonidan yuqori baholanib, ko'p bora ta'lim maskanlarida qo'llash uchun tavsiya qilingan.

O'ziga xos qalamiga ega opa padari buzrukvori G'ayrat otaning yillar davomida kitob mutolaasi tufayli dunyoga kelgan hikmatlar xazinasini jamlab, «Otamning javohirlari» nomli kitobni chop ettirganida u kishining adabiyotga bo'lgan beqiyos ixlosining sababini bildirgan bo'ldim.

– Otam juda ko'p kitob o'qiydi, – deydi Mohin opa. – Kitoblardan ta'sirlangan joylarini alohida daftar-ga ko'chirib qo'yadi. Bunday daftarlar salkam bir sandiq bo'lgan. Ulardan ayrimlarini bizga ham berdi. Bu kitob o'sha daftarlarning mevasi. Hali ancha kitobga yetadigan xazinamiz bor. Sakson yoshni qarshilayotgan otam hamon kitob mutolaasidan charchamaydi.

Mohin opa to'g'arak a'zolarini shaharning tarixiy va diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirib charchamaydi. Bir qarasangiz Abdulla Qahhor, birida G'afur G'ulom yoki boshqa ijodkorlar uy-muzeyida bo'lib o'quvchilarini adabiyotning sirli olami bilan oshno etib, ularga quvonch ulashib, o'zi ham zavqqa to'ladi.

Opaning besh farzandining bari o'zlari tanlagan soha mutaxassisi. Ayniqsa, kenja qiz onasining yo'lini tanlagandan benihoyat mamnun.

Ustozni sobiq o'quvchilari tez-tez yo'qlab turishadi. Muallima uchun, menimcha, bu eng katta baxt. Axir, mehnatlari samarasini ko'rish naqadar zavqli. Biz opaning qo'lga kiritgan turli yutuqlari haqida to'xtalib o'tirmadik. Chunki u kishi bu ishlarni sharaf va burch deb qabul qiladi. Shu kunlarda esa ustoz quchoq'i alvon-alvon gullarga to'ladi. Chunki hayotdagi ellik beshinchi bahor quvonchi bilan ustozni qutlashga shay turgan sobiq va ayni damdagi o'quvchilarining sanog'i adoqsiz. Ular qatorida biz ham kamtarin ustozga yangidan-yangi zafarlar tilaymiz.

Yusuf ABDULLAYEV

Mehr tafti

bilan ijodiy hamkorligimiz qanday boshlangani haqida hikoya qilmoqchi edim.

2014-yil, bahor faslining iliq kunlarida poytaxtimizdagi G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida an'anaviy kitob bayrami o'tkazilishi arafasi edi. Biz respublika bolalar va o'smirlarining «Tong yulduzi» gazetasi ijodiy xodimlari ham bayramga qizg'in hozirlik ko'rmoqda edik. Menga Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabi o'quvchilarini kutib olib, ular bilan turli viktorina o'yinlari tashkil etish, bayramni chiroyli o'tkazish topshirilgan edi. Odatim bo'yicha bog'ga ancha ertaroq yetib bordim. Endi o'quvchilar o'z vaqtida yetib kelishsa bo'lgani. Odamlar ancha-muncha yig'ilib qolgan chog'i bog' darvozasidan kirib kelayotgan bir xil kiyimdagi, qo'llarida «Tong yulduzi»ga atalgan turli shiorlarni ko'tarib olgan o'quvchilarga ko'zim tushdi. Ularga peshvoz chiqib qaysi maktabdan ekanini so'radim. Xayriyat, menga biriktirilgan maktab ekan. Bolalardan orqaroqda, ularni nazorat qilib kelayotgan opa ularni bir safga tizib, tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilishlari borasida ko'rsatma berdi. So'ng menga yuzlandi:

– Men maktabning adabiyot fani o'qituvchisi Mohin Omarovaman. Bu o'quvchilar men olib boradigan «Yosh adabiyotshunoslar» to'garagi a'zolari.

Opaga bolalarni jamlab tadbirga vaqtidan oldin olib kelgani uchun alohida minnatdorlik bildirdim. Qisqa tanishuv chog'i diqqatimni tortgan narsa shu bo'ldiki, nazarimda opa biroz bezovtadek ko'rindi.

– Mabodo biror zarur yumushingiz yo'qmidi opa? – dedim u kishining betoqat bo'layotganiga xijolat bo'lgandek.

Nihoyat opa ko'rindi. O'quvchilar xuddi polaponlardek u kishini o'rab olishgandi. O'quvchilar davrasidan chiqqanida bir narsaga ko'zim tushib hayron qoldim. U kishining o'ng qo'li gipslangan edi. Shu holatda ham ustoz o'quvchilariga bergan va'dalarining ustidan chiqib, tadbir oxirigacha ishtirok etib, bolalarning bir quvonchiga o'n quvonch qo'shdi. Biz esa opaning kasbiga bo'lgan fidoyiligidan hayratga tushgandik.

dedim bog' darvozasi yonidagi xonachada o'tirgan oq xalatlil ayolga ishora qilib.

Opa rozi bo'lib shifokor oldiga ketarkan, o'quvchilariga ko'z-quloq bo'lib turishimni qayta-qayta iltimos qildi. Opaning o'quvchilari nihoyatda odobli va tirishqoq ekan. Turli savol-javob bahslarida faol qatnashib, bayramimizga o'zgacha zavq bag'ishlashdi. Men esa ora-chira ustozni keldilarmikan deb chor-atrofga bir-bir qarab qo'yib yana o'z ishimga band bo'laman. Nihoyat opa ko'rindi. O'quvchilar xuddi polaponlardek u kishini o'rab olishgandi. O'quvchilar davrasidan chiqqanida bir narsaga ko'zim tushib hayron qoldim. U kishining o'ng qo'li gipslangan edi. Shu holatda ham ustoz o'quvchilariga bergan va'dalarining ustidan chiqib, tadbir oxirigacha ishtirok etib, bolalarning bir quvonchiga o'n quvonch qo'shdi. Biz esa opaning kasbiga bo'lgan fidoyiligidan hayratga tushgandik.

Shu voqeadan so'ng Mohin opa va uning shogirdlari bilan qizg'in ijodiy hamkorligimiz boshlandi. Gazetamiz tashkil etgan respublika ko'rik-tanlovlari bu maktab o'quvchilari doim sovrindorlar safidan joy olishardi. Ular yuborgan maqola, she'r va hikoyalarni goho qayta-qayta ishlash kerakligini aytib qo'lga tutqazardik. U kishi va o'quvchilari biz talab etgan darajaga yetguncha qayta ishlab charchashmasdi. Biz esa uning sabriga qoyil qolardik.

– Bir paytlar yozuvchi va shoirlar bilan yaqindan muloqot qilish biz uchun orzu edi. Shu bois o'quvchilarimiz ijodkorlar bilan tez-tez ko'rishib turishlari uchun badiiy kechalar uyushtirib, taniqli yozuvchi-shoirlarni taklif qilib uchrashuvlar o'tkazishni kanda qilmayman. Bu bolalarim nihoyatda baxtli. Tohir Malik, Tursunboy Adashboyev, Dilshod Rajab,

“Ko‘rib tursak edi ko‘zlaringizni”

Ezgulik bog‘i. Siz shu bog‘ haqida eshitganmisiz? Men eshitganman. Otam bizga ko‘p bora bu haqida so‘zlab berardi. “Yaxshidan bog‘ qoladi”, derdi.

— Bog‘ nima? — derdik ukam bilan men.

— Bog‘mi? Kimdir hech narsa yo‘q joyga gul, olma, o‘rik, nok ekadi. U bog‘ bo‘ladi.

Biz o‘z tomorqamizga termulib o‘tirardik-da, yana savol berardik:

— Ota, siz yaxshi odamsiz-a?

— Nega?

— Mana tok ekkansiz. Olma, o‘rik, tut ekkansiz, hovlimiz bog‘-ku! Otam bizni mahkam bag‘riga bosardi-da:

— Yaxshi odamlar “Ezgulik bog‘i”ni yaratadilar, — derdi.

— Ezgulik bog‘i?

— Ha, ezgulik bog‘i.

— U qanaqa bo‘ladi?

— U insonlar qalbiga ekiladi. Yillar o‘tgan sayin avj olib hosil beradi. Uni eka olgan kishi hech ham o‘lmaydi.

— Demak, o‘lmaslik mumkin ekan-da?

— Ha, kimki bu bog‘ni yaratsa, uning umri davom etaveradi.

Men bu bog‘ haqida ko‘p o‘ylardim. Kimki bu bog‘ni yaratsa, abadiy yashaydi.

Bolaligimda bo‘lgan bu suhbatlar mag‘zini umr o‘tgan sayin anglab boryapman. Negadir shu bog‘ haqida o‘ylaganimda ustozlarim ko‘z oldimga kelaveradi. Ana shunday bog‘ sohiblaridan biri professor To‘ra Nafasov edi.

Domla To‘ra Nafasov bizga fors tili va o‘zbek dialektologiyasi fanidan sa-boq berardi. Guruhimiz rahbari ham edi. Shuning uchunmi, bilmadim, u kishiga hurmatimiz, mehrimiz bo‘lakcha edi. Ustoz bizga mehr-la va juda sokinlik bilan dars o‘tar, biz eshitmay qolmaslik uchun jim o‘tirardik. Ba‘zi fan nomzodlarini ham ko‘rdik. Ular bizga osmondan nazar tashlar, kamchiliklar izlar, baho qo‘yishda talabalarni qiynab, nazarimda, huzurlanishardi (bizning esa ularning ma‘ruzalaridan ko‘nglimiz to‘lmasdi). Bizning domlalar (filologiya fakulteti) o‘zgacha olam, o‘zgacha insonlar edi.

To‘ra Nafasov biz, talabalar bilan qadr-donlarcha munosabatda bo‘lardi. Tanbeh berganda ham muloyimlik bilan tushuntirardi. O‘z bilimlarini emas, balki odamiylik darslarini ham berib borardi ekani, buni keyinchalik umrimiz davomida anglay boshladik. Talabalar bilan muomala qilishda har biriga shaxs sifatida hurmat nazari bilan qarardi. Bu esa bizda o‘zimizga nisbatan ishonch tuyg‘ularini shakllantirardi.

1987-yilning yozida rahmatli professor To‘ra Nafasov bilan institut tomonidan xalq shevalarini o‘rganish maqsadida ekspeditsiyaga chiqib, Ko‘kbuloqdagi bir maktabga joylashdik. Har kuni atrofdagi qishloqlarga borib, aholi bilan suhbatlashib, rivoyat-

lar, ertaklar, joylarning o‘ziga xos nomlanishi haqida ma‘lumotlar yozib olish asnosida, ba‘zan kishilar o‘z muam-molari-yu dardlarini biz bilan baham ko‘rishar, bizni o‘zlariga yaqin olib bor dardini to‘kib solganlari ham bo‘lardi.

Bir kuni yozib olganlarimizning hisobotini ustozga topshirayotib, yozganlarim orasida ba‘zi kishilarning ayrim e‘tiroflari diqqatimni tortdi.

Bir kishining aytishicha, uzoq yillar kasal bo‘lib bormagan joyi, ko‘rsatmagan shifokor-u tabibi qolmagan ekan. Umidlari so‘nib, taqdirga tan beribdi. Buni qarang, kunlarning birida otasi kelib:

— Chiqmagan jondan umid, bolam, shu o‘zimizning Langar otani ham bir ziyorat qilib kelaylik, — debdi. Uch chorshanba kuni ziyorat qilgach, mo‘jiza ro‘y beribdi. Bemor yigit oy-oqqa turib tuzalib ketibdi. Kimki bu ziyoratgohga borib, yaxshi niyat qilsa, ijobat bo‘lar emish.

— Domla, bu nimasi, shunaqa bo‘lishi ham mumkinmi?
— deb so‘radim.

Ustoz miyig‘ida kulib qo‘ydi-da:

— E‘tiqodda gap ko‘p. U tabarruk joy hisoblanadi, — dedi.

Hisob bilan ancha fursat suhbatlashib o‘tirdik. Biz o‘rnimizdan turgach:

— Ertaga tongda tursanglar, sizlarni bir joyga olib borib kelaman, lekin bu haqida birovga aytib yurmanglar, xo‘pmi?! — dedi.

Ustoz aytganini qildi. Qishloqdagi bir mashina haydovchisi bilan savdolashib, o‘sha afsonaviy ziyoratgohga olib bordi. Har qancha taqiqlarga qaramay, chorshanba kunlari kelib-ketuvchi odamlarning keti uzilmasligini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik. Tepalikka chiqib, tabiatning go‘zal tarovatidan bahra olar ekanmiz, hayrat va quvonchdan dilimiz shunday yayrardiki, buni so‘z bilan ta‘riflab bo‘lmasdi.

“Langar ota” maqbarasi esa eng baland tepalikda bo‘lib, atrofini pista-zor o‘rab turar, bu ham unga o‘zgacha salobat bag‘ishlardir. Naqadar go‘zal! O‘shanda o‘zimizni shunchalar yengil his qildik, ruhiyatimizda ham ajib bir o‘zgarish sezardik.

Maqbaraga kirdik. Bir kishi Qur‘on tilovat qildi. Ustoz ham nimalarnidir pichirlab duo o‘qidi. So‘ngra domlamiq maqbara ichida kimlar dafn etilgani, kim tomonidan qurilgani, bu yerda mangu orom olgan shayxlarning karomatlariga haqida maroq bilan so‘zlab berarkan, devorlarda bitilgan arab alifbosidagi bitiklarning ma‘nosini tushuntirib berdi. Bu ziyoratgoh tarixini o‘rganish va asramoq lozimligini uqtirarkan: “Ana, ko‘rdilaringmi, ana shunday ulug‘ joylarimiz bor, — dedi faxrlanib, — faqat boshqalarga aytib yurmanglar-a!?”



Biz tomoshadan xursand edik. Domla tayinlagandek, hech kimga hech narsa demadik. So‘raganlarga “Mazza qilib keldik” deb qo‘ya qoldik.

Shu kunlarning birida Amir Temur g‘ori haqida gap ketdi. Kimdir g‘or haqida gapiribdi. Bunga qiziqib kursdoshlarimizdan Fozil, Qarshi aka o‘z guru-hidagilar bilan hech kimga aytmay, o‘sha g‘orni ko‘rgani ketib qolishibdi. Ular: “Yaqin, kechgacha yetib kelamiz,” deb o‘ylashibdi. Hamma maktabga qaytdi. U guruhdan esa darak yo‘q.

— Qayerga ketganini bildinglarmi?
— so‘radi ustoz.

— U guruh Amir Temur g‘ori haqida gapirayotgan edi, ehtimol shu yoqqa ketgandir, — dedi kimdir.

O‘sha kuni domla mijja qoqmay chiqdi. Biz ham xavotirda. “Ertaga kelsa domla ularning po‘stagini rosa qoqadi”, deguvchilar ham bo‘ldi. Kimlardir qattiqroq chora ko‘rishini ham kutardi. Ertasiga kechgacha tomon guruhdagilar yetib keldi.

Domla menga qarab:

— Bir achchiq choy damla! — dedi va kursdoshlarimni o‘z xonasiga taklif qildi.

Men ham choy ko‘tarib kirdim. Domla vazmin, bosiqlik bilan tanbeh berardi:

— So‘ramasdan ketganlaring uchun sizlardan xafaman, hammani xavotirga qo‘ydilaring... Ammo qiziquvchanliklaring, o‘sha joyni ko‘rib kelganlaring, yonimizga eson-omon qaytganlaring uchun rahmat!

Ustozning yonidan chiqqan do‘stlarimizni hammamiz o‘rab olganmiz. Amir Temur g‘ori va yo‘ldagi voqealarni aytib, kechadan buyon xavotirda o‘tirganlarni ichakuzdi hangomalari bilan kuldirishardi. Bizdan sal nariroqda ustoz miyig‘ida kulib kuzatib turardi.

Ustozga o‘shanda juda havasimiz kelgan. Qanday ajoiyb ustoz!

— Men bo‘lganimda, — dedi kursdoshimiz Qarshi aka, — hammani savalab, ta‘zirlaringni berardim.

— Ustozning muloyim gap, sening tayog‘ingdan ham achchiq botishini bilmaysan-da, — dedi kimdir.

Domla bilimdonligi, talabchanligi, bag‘rikengligi va mehribonligi bilan talabalar qalbini zabt etgan, ya‘ni ezgulik urug‘ini ekib ulguragan fidoyi inson edi.

Institutni tugatdim. Oradan 20 yil o‘tib, malaka oshirish uchun Qarshi shahriga bordim (Bu orada ustoz bilan uchrashmagan edim). Talabaliq yillarim, ustozlarim sog‘inchi meni Qarshi universitetiga yetakladi. Hamrohlarim “Ustozlaringiz endi sizni tanirmidi?” deyishdi. — Men taniyman-ku deb filologiya fakultetining binosiga kirib bordik. Domla bir guruh talabalar o‘rtasida nimanidir muhokama qilib o‘tirardi. Menga ko‘zi tushishi bilan o‘rman turib ketdi: — Hoy, sen bu yoqqa kel-chi. (Men yoniga borgach) Mana shu opalaring ham diplom ishini “Qamashi tumani toponimlari”dan yozgan edi. Salkam nomzodlikka yaqinlashtirib qo‘ygan-di”, deb maqtadi. — Oradan 20 yil o‘tib ham meni tanidingizmi, deganimda: — Nima, biz sizlarni unutib yuboramizmi, aksincha, siz unutsangiz ham uzoqdan bo‘lsa-da, kuzatib turamiz. G‘alabangizdan quvonamiz, mag‘lubiyatingizdan esa xafa bo‘lamiz.

Mana, institutni tugatganimizga ham 30 yil bo‘ldi. Bugun ustoz oramizda yo‘q. Biroq u kishi har doimgidek yonimizda, qalbimizda. Dangasalik, loqaydlik kabi illatlar yaqinlashganda bizni ogohlantirgandek tushlarimizga kiradi.

“Hoy, holing shumi?” Birdan sergak tortaman. Demak, mendan xatolik o‘tdimikan?

Hayotda ko‘p voqealarni ko‘rdik, ko‘p insonlar bilan uchrashdik. Ba‘zilar o‘zlarini osmon qadar tutgan bo‘lsalarda, hayotda qilgan a‘mollari, xizmatlari faqat o‘z manfaatlarini uchun bo‘lgani, qolganlarga foydasi bo‘lmagani sabab tez unutiladi.

Professor To‘ra Nafasov O‘zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan fidoyi olim, o‘z hayotida ezgulik urug‘ini qadagan, bag‘rikeng inson sifatida shogirdlari va qadr-donlari qalbida yashashda davom etaveradi:

Sizsiz yashamoqlik

qanchalar og‘ir,

Ko‘rib tursak edi ko‘zlaringizni.

Sog‘indik saboqni, sog‘indik axir,

Bizga mehr bergan so‘zlaringizni.

Angladik, siz bilan o‘tgan

har on baxt,

Ilm bo‘stonidir charog‘on va keng.

Olg‘a intilamiz sizga qilib ahd,

Ustoz, o‘g‘itingiz, oltinlarga teng.

Risolat JUMANAZAROVA,
Qamashi tumanidagi
42-maktabning ona tili va
adabiyot fani o‘qituvchisi

PEDAGOG VA MATBUOT

Bugun ular ayro tushdi(mi?)

Pedagogika va matbuot. Bu ikki qirg'oq hamisha bir-biriga yondosh bo'lib, bir-birini qo'llab-quvvatlab kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy kabi gazetchilik tamal toshini qo'ygani jaddidlarimiz, avvalo, ustoz, pedagog bo'lgani sir emas. Ammo so'ngi yillarda bir-biriga suyanib bo'lib kelgan bu ikki qirg'oqning o'rtasiga nifoq tushdi.

O'qituvchilarning ko'pi gazetadan yoppasiga bosh tortishgacha keldi vaziyat. Kimdir majburiy obunani, kimdir matbuot tarqatuvchi tuzilmalarning yaxshi ishlamasligini, yana kimdir esa gazetadan ko'ra internet qulayligini vaj qilib ko'rsatdi. Sabablar topilgandek bo'ldi. Ammo maktab degan dargohning gazetasiz qolishini bu sabablarning qay biri oqlay oladi?! Omon Matjon aytgan gap yodimga tushdi: "Uyda yeyishga non bo'lmasa ham, ammo hamisha o'qishga gazeta-jurnal bo'lardi". Maktab ham jihozsiz qolishi mumkin, ammo gazetasiz qolishi mumkin emas. Matbuot o'qituvchini ham, o'quvchini

ham zamonaviy bilim bulog'i bilan sug'orib turuvchi manba emasmi?!

823-qarorga ko'ra maqola yozish bandi ham ustozlarni matbuotga hamnafas qilish uchun amalga oshirilgan islohot, menimcha. Ammo ayrim pedagoglar bugun gazeta o'qimay qo'ygani yetmagandek, hatto shundan ham muammo yasayotgani, maqola yozishga og'ir bir vazifa sifatida qarayotganini ham ko'ryapmiz. Albatta, umrida yolchitib gazeta varaqlamagan pedagog uchun maqola tayyorlash ulkan mashaqqatdek ko'rinishi tabiiy hol. Hatto pulga maqola tayyorlatayotgan o'qituvchilar ham borligi quloqqa chalayapti...

Bugun zamon o'zgardi. Ko'p soha qatori gazetalar ham jonlanganini ko'ryapmiz. Muayyan vaqt bog'chada tarbiyachi bo'lib ishladim. U yerda sanoqsiz gazetalarim chang bosib yotganini, bu gazetalarda tayyor senariylar, yaxshi hikoya va ertaklar bo'lsa-da, tarbiyachilar mashg'ulot uchun manba izlab, boshqalarga qo'ng'iroq qilib, ma'lumot so'rayotganini kuzatdim. Bugun esa pedagoglar tomonidan gazetaga yo'qolgan ishonch, mehning tiklanishini xohlovchi bir insonman.

Hurmatli pedagoglar, maqola yozmoq uchun ilmning o'zi kamlik qiladi. Kitob o'qish, internetga hamnafas bo'lish o'z yo'liga. Ammo matbuot bilan hamroh bo'lmagan pedagogning biror narsa xususida — xoh u ilmiy, xoh siyosiy bo'lsin, erkin mushohada yuritib, maqola tayyorlashi mushkul. Xulosa esa o'zingizdan.

Maftuna KARIMOVA



"Shablon" sinfxonalar ta'lim sifatiga putur yetkazadi

Xalqimizning ma'naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning o'рни beqiyos. Hozir har bir fanni o'qitish sohasida bo'lgani kabi tasviriy san'at ta'limida ham katta o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Albatta, yutuqlar insonga quvonch bag'ishlaydi, lekin aynan ta'lim sohasida yutuqlarga mahliyo bo'lib qolish noo'rindir. Keling tasviriy san'atni o'qitishdagi ayrim kamchiliklar haqida so'z yuritsak.

Birinchisi, fanga nisbatan muhabbatning haminqadarligi. Bu muammo bir qarashda ko'zga tashlanmaydi, lekin maktablarda tasviriy san'at faniga nisbatan e'tibor yuqori emasligi, o'quvchilar ham ikkinchi darajali fan sifatida munosabatda bo'lishi ayni haqiqat.

Tasviriy san'at fani zamirida insonlarni yomonlikdan asrash g'oyasi yotadi. Agar odam go'zallik bilan birga yashasa, avvalo dunyoqarashi yorqin bo'ladi. Olamga, atrofidagilarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday fikrdan voz kecha oladi. Shunday ekan bolada bog'cha yoshidan, kerak bo'lsa, ona qomdanoq san'atga muhabbatni shakllantirish kerak.

Yana biri shuki, tasviriy san'at o'qitiladigan muhitning tasviriy talablarga javob bermasligi. Hamma murojaat qiladigan xorij tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Yevropa davlatlari umuman barcha rivojlangan davlatning bog'cha va maktablarida har bir fan uchun alohida muhit yaratishga e'tibor qaratiladi. Bizda zamonaviy sinfxona tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: kompyuterlar, zamonaviy partalar, proyektor va umumiy tushunchalar ifodalangan devoriy ko'rgazma materiallari. Bunday "shablon" sinfxonalar barcha fanlar uchun bir xil ko'rinishda. Har bir fan o'ziga xos muhit bilan boyitilgan sinfxonalarda o'qitilsa, sifat ko'rsatkichi yuqorilaydi. Tasviriy san'at bu rang hamda inson ongining hosilasi ekan, ushbu fanning o'qitilish jarayonini doimiy nazoratda ushlamoq lozim. Zero, go'zallik fani sir asrorlarini go'zal muhitda o'rganish kerak.

Matluba TURSUNOVA,
Angor tumanidagi
3-maktab o'qituvchisi

Kutubxonadan sevimli nashrlarim — "Ma'rifat", "Ustoz" gazetalarini oldim-da, uyga otlandim. Yo'lda bir hamrohim (oliy ma'lumotli o'qituvchi): "Hozir gazeta o'qib yuradigan zamon emas-ku, hamma yangiliklardan internet orqali xabardor bo'lish mumkin", deya qo'limdagi gazetalarga ishora qildi. Ajabo, bugungi kun o'qituvchisi nahotki shunday fikrlasa? To'g'ri, hozirgi globallovuv davrida har qanday mavzudagi axborot va yangiliklarni internetdan topish mumkin. Lekin gazeta o'qish-chi? Axir gazetada ma'rifat bor, ma'naviyat bor. Gazeta, jurnal, kitob o'qiydigan inson bilan o'qimaydigan insonning fikrlashi orasida farq katta.



Gazetalar har qanday internet saytidan ustun

Bugungi kun ziyolisi keng doirada fikrlashi, dunyoqarashi boyligi bilan ajralib turishi kerak. O'quvchilarning qarab bolaligim yodimga tushadi. Adabiyotga juda qiziqqanim, she'r, kichik hikoyalarni yozganim, kimga qayerga yuborishni bilmay ovora bo'lganimni ko'p xotirlayman. otam rahmatli ba'zida yoshligini gapirib berardi.

"...Bolaligim urush paytiga to'g'ri kelgan. Kech kuz edi. Maktabdan kelib, mollarni dalaga boqqani olib chiqardim. Bir kuni mollarni dalaga haydab, qo'ymidagi kitobni o'qishga tushdim. Kitobga shunday berilib ketibmanki, oy-oq-qo'llarim muzlab, kech tushganini ham bilmay qolibman. Dalani qorong'ilik qoplagan, mollarimdan esa darak yo'q edi. Ular o'tlab yurib keyingi dalaga o'tib ketibdi. O'shanda onam bechora xavotirlanib, meni koyigandi. Tanbeh ehsitilgan-da, kitobimni o'qib olganimga xursand edim. Chunki kitobni ertaga qaytarib berish sharti bilan o'qituvchimdan olgan edim-da. O'sha paytlari kitoblar juda noyob bo'lardi. Kitoblarim juda ko'p bo'lishini orzu qilardim". Dadamning hikoyasini farzandlarimga tez-tez aytib beraman.

Hozir qaysi kitobni o'qiyman desangiz, topiladi. Otamning menga bergan o'g'itlari, nasihatlari ta'sirida uyimda mo'jaz kutubxona tashkil qildim. Kitoblarim qatoridan, albatta, gazetalar ham joy olgan. Kechki ovqatdan so'ng gazeta mutolaa qilaman. O'qiganlarimni hamkasblarim bilan o'rtoqlashaman, zarur ma'lumotlarni yondaftarimga yozib qo'yaman. Ertangi ish kunim uchun yangi-yangi g'oyalarni, yangi metodlarni yarataman. Mutolaa zavqidan bahramand bo'lib yashash hayotimizni go'zallashtiradi. Aqlimiz charxlanib, fikrimiz tiniqlashadi.

Ayniqsa, o'qituvchilarning ma'naviy boyligi bo'lgan "Ma'rifat" gazetasi mushitariylari nafaqat ta'limga oid eng so'ngi yangiliklar, balki badiiy didni o'stiruvchi, dunyoqarashni kengaytiruvchi sara maqolalar ulashadi. Men uchun bu gazeta har qanday internet saytlari-yu ijtimoiy tarmoqlardan ming chandon ortiq.

Ha aytganday, kelgusi yil uchun "Ma'rifat"ga yana obuna bo'laman.

Rahbaroy MELIBOYEVA,
Uchko'prik tumanidagi
5-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:


O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150, V-4349. Tiraj 7752.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonaga — (71) 233-60-55;
kotiibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirinishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchesi muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatchesi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonasi manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6